

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 334.75

BOBOMURODOV AZIZBEK ZOIR O‘G‘LI

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MILLIY
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI IMKONIYATLARI
VA SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI**

Mutaxassislik: 5A230603 - «Investitsiyalarni boshqarish»

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

i.f.n. Qosimova N.

TOSHKENT – 2018

	MUNDARIJA	betlar
	KIRISH.....	3
I BOB.	KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARI...	10
1.1.	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	10
1.2.	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari.....	20
1.3.	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning xorijiy mamlakatlar tajribalari.....	29
	I bob bo'yicha xulosa.....	35
II BOB.	KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANITIRISHDAGI O'RNI TAHLILI.....	37
2.1.	O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi tutgan o'rni.....	37
2.2.	O'zbekistonda biznesni yuritish jarayonlari va O'zbekistonning jahon reytingida tutgan o'rni tahlili.....	43
2.3.	Kichik biznes subyektlarining YaIM dagi ulushini ortishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	49
	II bob bo'yicha xulosa.....	52
III BOB.	KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI...	54
3.1.	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi imkoniyatlari.....	54
3.2.	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari.....	59
	III bob bo'yicha xulosa.....	68
	XULOSA VA TAKLIFLAR.....	69
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	72

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Jahon amaliyotidan ma'lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlovchi asosiy bo'g'in va amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki davrdan bozor mexanizmiga asoslangan jamiyat qurishni asosiy pirovard maqsadi sifatida belgilangan hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik respublikamizda milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va iqtisodiy taraqqiyotga erishishning muhim yo'llaridan biri sifatida tanlab olindi, shu jihatdan iqtisodiyotda ro'y berayotgan turli ijobiy o'zgarishlar ko'p jihatdan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri qilib belgilangan. O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi iqtisodiy taraqqiyotidan ma'lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining ustuvor sohasiga aylandi, xususan, 2017-yilda mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotning 53,3 foizi, ish bilan band bo'lgan aholining 78.3 foizi aynan shu sektor hissasiga to'g'ri kelganligi so'zimizning tasdig'idir¹.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik O'zbekistonning istiqboldagi iqtisodiy taraqqiyotida ham hal qiluvchi ahamiyatga ega sektorlardan biri bo'lib qoladi, bu borada 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining muhim bir yo'nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va uning milliy iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish davlat iqtisodiy siyosatining muhim bo'g'ini qilib belgilangan. Xususan, makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish va yanada oshirish maqsadida istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik

¹ <https://stat.uz/uploads/docs/maliy-biznes-yan-dek-2017-uz.pdf> (Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotnomasi)

biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish va pirovardida milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish² iqtisodiy taraqqiyotimizning poydevori sifatida belgilanganligi mazkur sektorning dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ifodalaydi.

Ammo shuni, alohida ta'kidlashni hohlardikki, milliy iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi hamda samarali ishlashi, iqtisodiy rivojlanishda sohaning ichki salohiyatidan yanada kengroq foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etish bugungi kunning dolzarb talabidir. Bozor iqtisodiyotida iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili tadbirkorlikdir, taraqqiyot darajasi tadbirkorlik subyektlarining samaradorlik darajasi bilan belgilanadi. Iqtisodiy erkinlik va farovonlikning hal qiluvchi barometri yangi va kichik firmalarning yaratilishidir.³

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning samarali faoliyat yuritishida soha tarkibiy strukturasi mukammallik darajasi alohida ahamiyatga ega. Tarkibiy strukturaning mukammal bo'lishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik salohiyatidan to'liq foydalanish hamda uning rentabelligini oshirish imkonini beradi va shu bilan birgalikda xalqaro miqyosda iqtisodiy raqobat muhitining keskinlashishi va kuchayib borishi sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish masalasi obyektiv zaruratga aylanadi. So'zimizning tasdig'i sifatida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Faol tadbirkorlik biznes faoliyatini innovatsion, ya'ni zamonaviy yondashuvlar, ilg'or texnologiya va boshqaruv usullari asosida tashkil etadigan iqtisodiy yo'nalishdir. Faol tadbirkor deganda, biz raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimi, yangi ish o'rinlari yaratib, nafaqat o'zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlarni

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.

³ Sorin-George Toma, Ana-Maria Grigore, Paul Marinescu. Economic Development and Entrepreneurship. Procedia Economics and Finance Volume 8, 2014, Pages 436-443. P.439.
<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2212567114001117>

tushunamiz. Bunday tadbirkorlar safini kengaytirish, jumladan, yuqori texnologiyalar, ilm-fanning eng so'nggi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalarni mamlakatimizga olib kelish va joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galdagi vazifamiz bo'lishi shart"⁴ degan so'zlarini keltirish o'rinlidir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan masalalardan kelib chiqib, aytish mumkinki, iqtisodiyotni erkinlashtirish liberallashtirish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi imkoniyatlari va salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlarini chuqur tadqiq qilish va shu asosda mazkur sohani takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi va magistrlik dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti bo'lib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati hamda uning statistik ko'rsatkichlari hisoblanadi. Tadqiqot predmetini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan bog'liq bo'lgan huquqiy va iqtisodiy munosabatlar tashkil qiladi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Magistrlik dissertatsiya ishining maqsadi O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning imkoniyatlari va salohiyatidan samarali foydalanish yo'llarini hamda uning tashkiliy huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish quyidagi vazifalarning bajarilishiga asoslanadi:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mazmun-mohiyati, mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyatini yoritish;
- “biznes”, “tadbirkorlik”, “xususiy tadbirkorlik”, tushunchalarini tavsiflash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlariga aniqliklar kiritish, ularni rivojlanish tendensiyalarini yoritish;

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so'zi” gazetasi, 2017 yil 23 dekabr.

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning iqtisodiy, huquqiy asoslarini o'rganish va tizimlashtirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tashkil etishning xorij tajribalarini tadqiq etish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarkibiy tuzilmasini o'rganish va tadqiq etish;
- kichik korxonalar faoliyatini tartibga solish bo'yicha tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish hamda taklif va tavsiyalarni asoslash.

Ilmiy yangiligi:

- iqtisodiyotni liberallashtirish va erkinlashtirish sharoitida kichik biznes faoliyatining nazariy va uslubiy masalalari ochib berildi;
- mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishiga salbiy ta'sir etuvchi omillar aniqlandi;
- kichik korxonalar faoliyatini tartibga solish bo'yicha tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining shakllari aniqlandi va muallif tomonidan guruhlashtirildi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari hozirgi zamon taraqqiyotining tamoyillari, qonuniyatlari, tendentsiyalari yoritildi;
- O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun belgilangan rag'batlantirish omillari tizimlashtirildi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari yoritildi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida moliyaviy resurslar tashkil topish manbalari oqilona tarkibining ta'minlanishi yuzasidan tadbirlar tizimi ishlab chiqildi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning jahon tajribalariga tayanib, uni yanada takomillashtirishga qaratilgan taklif-tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqot ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning samarali faoliyat yuritishga xizmat qilib, pirovardida sohaning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati va rolini yanada oshishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, moliyaviy ta'minlash muammolari xorijiy va respublikamiz iqtisodchi-olimlari tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Xorijlik iqtisodchi-olimlardan A.Busigin, R.Grib, M.Yunus, M.Robinson, A.Muravev, A.Ignatev, A.Krutik, V.Nabatnikov, B.Rayzberg, Yu.Rubina, V.Rube, P.Rouz, N.Siropolis, S.Smirnov, A.Taev, O.Lavrushin, M.Lapusta, T.Minakova⁵larning ilmiy ishlari shular jumlasiga kiradi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishning ayrim jihatlarini iqtisodchi-olimlardan Sh.Abdullayeva, Yo.Abdullayev, A.Vahobov, O.Iminov, T.Malikov, O.Olimjonov, N.Haydarov, Q.Muftaydinov, D.Tadjibaeva, A.O'lmasov, T.Qoraliev, F.Dodiyev ilmiy-tadqiqot ishlarida⁶ tadqiq etilgan. Kichik biznes va xususiy

⁵ Бусыгин А.В. Предпринимательство. Основной курс: учебник для вузов. - М.: ИНФРА - М, 1997. - 608 с.; Grib R.B. Razvitie sektora mikrofinansirovaniya v Rossiyskoy Federatsii. Avtoref. diss. na sois. uchen. step. k.e.n. - Volgograd: VGU, 2008. - 30 s.; Yunus M. Banker to the poor: Micro-Lending and the Battle Against World Poverty. New York: Public Affairs, USA; 2003. Corr. 2nd edition. 312 p.; Robinson M. The Microfinance Revolution: Sustainable Finance for the Poor. World Bank publications, Washington 2001, D.C. 20433 USA. 356 p.; Муравьев А.И., Игнатьев А.М., Крутик А.Б. Малый бизнес: экономика, организация, финансы /Учеб. пос. для вузов. -2-е изд., перераб. и доп. - СПб.: Бизнес-пресса, 1999. - 608 с.; Набатников В.М. Организация предпринимательской деятельности / Серия «Высшее образование»: - Ростов н/Д: Феникс, 2004. - 256 с.; Райзберг Б.А. Основы экономики предпринимательства. - М.: Знание, 1995. - 206 с. Основы бизнеса /Под.ред. Ю.Б.Рубина. Учебник. 6-е изд., перераб. и дополн. - М.: Маркет ДС Корпорейшн, 2005. - 784 с.; Рубе В.А. Малый бизнес: история, теория, практика. - М.: ТЕИС, 2000. - 231 с.; Роуз П.С. Банковский менеджмент. Пер. с англ. со 2-изд. - М.: Дело ЛТД, 1995. - 768 с.; Сирополис Николас К. Управление малым бизнесом. Руководство для предпринимателей: пер. с англ. - М.: Дело, 1997. - 672 с.; Смирнов С.А. Малое предпринимательство: общественная поддержка и содействие развитию. - М.: ЭБТ-Контур, 1999. - 160 с.; Таев А.Г. Развитие финансовой среды предпринимательства на муниципальном мезоуровне. Автореф. дисс. на соис. учен. степ. к.э.н. - Волгоград: ВГУ, 2007. - 21 с.; Лаврушин О.И. Банковское дело. - М.: Финансы и статистика, 2005. - 672 с.; Лапуста М.Г. Малое предпринимательство: учебник. - М.: ИНФРА - М, 2008. - 685 с.; Минакова Т.В. Стратегия и развитие малых и средних предприятий промышленности в условиях социально ориентированной экономики. Автореф. дисс. на соис. учен. ст. к.э.н. - М.: МГУ, 2008. - 26 с.

⁶ Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. - T.: Moliya, 2002. - 304 b.; Абдуллаев Ё.А., Юлдашев Ш.А. Малый бизнес и предпринимательство: учебник. - Т.: Иктисод-молия, 2008. - 340 с.; Вахобов А.В., Жамолов Х.Н. Банковское кредитование малого бизнеса: особенности и проблемы современной практики. Халқаро илмий-амалий конференция. - Т.: ТМИ, 2004. - Б. 264-268.; Иминов О.К. Кредитный механизм в современных условиях. Моногр. - Т.: ТГЭУ, 2000. - 102 с.; Muftaydinov Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari. I.f.d. ilm. dar. olish uchun yozil. diss. avtoref. - Andijon, 2004. - 40 b. Таджибаева Д.А. Микрокредитование в системе кредитных отношений (на примере Республики

tadbirkorlikning ayrim o'ziga xos xususiyatlari esa, M.Hakimova, R.G'ulomov, Z.Muradova, Yo.Pereverzeva, A.Pogrebnyak va X.Shukurovalarning ilmiy ishlarida tahlil qilingan.

Yuqoridagi holatlar ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va uning asosiy yo'nalishlarini belgilab, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan muammolarni asoslangan holda tadqiq etishni taqozo etadi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, induksiya, deduksiya, qiyosiy tahlil, tarkibiy tahlil, statistik tahlil, taqqoslash, guruhlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga va samaradorligini oshirishga oid davlat dasturlari ishlab chiqilishida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv yurtlarida "Moliya", "Makroiqtisodiyot", "Mikroiqtisodiyot", "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" fanlari o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Magistrlik dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan 74 betdan iborat bo'lib, kirish, uch bob, 8 ta paragraf, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiya ishi mavzusini ochib berish uchun 8 ta rasm hamda 7 ta jadvaldan foydalanilgan.

Magistrlik dissertatsiyasining birinchi bobida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mazmun-mohiyati va mamlakat iqtisodiyotidagi roli, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tashkiliy va iqtisodiy asoslari y asoslari pensiya tizimining huquqiy-me'yoriy asoslari hamda kichik biznesni tashkil etishning xorij tajribalari yoritilgan va ular yuzasidan qisqa xulosalar shakllantirilgan.

Ўзбекистан). Автореф. на соиск. учен. степ. канд. экон. наук. - Ташкент, 2004. - 25 с.; O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. - T.: Sharq, 2006. - 408 b.; Qoraliyev T.M., Yaxshiboev G'.Q. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy ta'minlash mexanizmi. Monogr. - T.: Akademiya, 2006. - 118 b.; Dodiev F.U. Mikromoliyalashtirishning aholi bandligi va turmush darajasini oshirishdagi o'rni. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimi: holati, tarkibi va isloh etish yo'nalishlari: ilmiy ishlar to'plami. - Toshkent: BMA, 2007. - B. 8-9.

Magistrlik dissertatsiyasining ikkinchi bobida O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi rivojlanishi ko'rsatkichlari tahlili, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'rsatkichlari Kichik biznes subyektlarining YaIM dagi ulushini ortishiga ta'sir etuvchi omillarning korrelyatsion-regression tahlili va uning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq qilingan.

Magistrlik dissertatsiya ishining uchinchi bobida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning istiqboldagi yo'nalishlari ko'rsatilgan, Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini oshirish orqali milliy iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Magistrlik dissertatsiya ishining xulosa qismida tadqiqot mavzusi yuzasidan umumlashgan xulosalar shakllantirilgan hamda Milliy iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rolini yanada rivojlantirish va oshirishga qaratilgan taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan.

I BOB. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARI

1.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda iqtisodiyotning g'oyat muhim sohasi bo'lmish kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishga juda katta e'tibor berib kelinmoqda. Buning boisi shuki, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik nihoyatda muhim o'rin egallaydi. Eng avvalo, u bozor kon'yunkturasi o'zgarishlariga tez moslasha olishga, iste'molchilarning talab-ehtiyojlari qanday o'zgarishiga qarab ish tuta bilishga qodir. kichik biznes va xususiy tadbirkorlik raqobatchilik muhitini shakllantiradi-ki, busiz bozor iqtisodiyotini tasavvur qilib bo'lmaydi. kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yangi ish o'rinlari jadallik bilan barpo etilishini, aholining bandligi o'sishi va uning daromadlari oshib borishini, mulkdorlarning keng qatlami shakllanishini ta'minlaydi. Qolaversa, kichik biznes ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan boyitishning muhim manbai hamdir.

Bozor iqtisodiyoti yakka hukmronlik holatlarini bartaraf etish va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobatni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy yo'naltirilgan ishlab chiqarish tarkibidagi tub o'zgarishlarni talab etadiki, bu masalaning echimi turli mulk shakllariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini keng rivojlantirish talabini orttiradi.

Biz ilmiy ishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, «biznes» va «tadbirkorlik» tushunchalarining mazmun-mohiyatini ifodalovchi taniqli iqtisodchi-olimlarning fikr va qarashlarini o'rgangan holda, bu tushunchalarga o'z mulohazalarimizni bayon etamiz.

Iqtisodchi-olimlar «biznes» tushunchasini “ish”, “munosabat”, “mashg'ulot”, foyda olishga qaratilgan bozor munosabatlari subyektlarining iqtisodiy faoliyati, puldan pul chiqarishga qaratilgan faoliyat, deb, “tadbirkorlik” tushunchasini yaratuvchanlik orqali hamda aholi talabini qondirish asosida daromad topishga

qaratilgan, insonlarga naf keltiruvchi iqtisodiy faoliyat, javobgarlik, mustaqillik, bozorbop tovarlar ishlab chiqarish orqali foyda olishga erishish, xatarga tayyor bo'lish, g'oyalarga boy, irodalilik, tirishqoqlik va tashkilotchilik kabi xususiyatlar mujassamlashgan tashabbuskor faoliyat, deb talqin etadilar. Ayrim iqtisodchi-olimlar “biznes” va “tadbirkorlik”ni ma’nodosh tushunchalar, deb ham hisoblaydilar. Xususan, M.Rasulov⁷ fikricha: “tadbirkorlik mohiyati, tadbirkorlik va biznes tushunchalari bir xil”. N.Beknozov⁸ fikricha: “aslida biznes va tadbirkorlik tushunchalarining mohiyati bir xil”.

Iqtisodiy adabiyotlarda «tadbirkor» tushunchasi birinchi marta 1723-yilda Parijda nashrdan chiqqan “Umumiy tijorat lug’ati”da paydo bo’lgan va bunda “tadbirkor” deganda «ishlab chiqarish va obyektlar qurilishi bo’yicha majburiyatni o’z zimmasiga olgan shaxs»⁹ tushunilgan. Ilmiy termin sifatida “tadbirkorlik” tushunchasi XVIII asrning boshida taniqli ingliz iqtisodchisi Richard Kantilon ishlarida qo’llanilgan¹⁰. Uning fikricha, “tadbirkor - bu foyda olishi chegaralanmagan va tovarlarni arzon narxda sotib oladi-yu, lekin uni qimmatroq narxda sotadi, u tavakkalchi, taklifni talabga moslovchi shaxsdir”¹¹.

A.Busigin tadbirkorlikni “foyda olish maqsadidagi iqtisodiy faollikning maxsus turi” sifatida ta’riflab, tadbirkorlik faoliyatining maqsadi deb, shunday tovarni ishlab chiqarish va sotishni tushunadiki, u bozorda talabga ega bo’lib, tadbirkorga foyda keltirishi lozim. U tadbirkorlikni yangi narsani yaratish jarayoni sifatida, tadbirkorni esa ularning barchasiga zaruriy vaqt va kuch sarflovchi, barcha moliyaviy, psixologik va ijtimoiy tavakkalchilikni zimmasiga oluvchi, evaziga pul va erishgan muvaffaqiyatdan qoniqish hosil qiluvchi inson sifatida qaraydi¹².

N.Siropolis tadbirkorlikni jonli, dinamik faoliyat hisoblab, tadbirkorni ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etuvchi, uni boshqaruvchi va barcha mavjud riskni o’z

⁷ Rasulov M. Bozor iqtisodiyoti asoslari. Darslik. – T.: O’zbekiston, 1999. – B. 217.

⁸ Beknozov N. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: TDYuI, 2006. – B. 230.

⁹ Основы бизнеса /Под. ред. Ю.Б.Рубина. Учебник. 6-е изд. - М.: Маркет ДС Корпорейшн, 2005. – С. 47.

¹⁰ Акимов О.Ю. Малый и средний бизнес: эволюция понятий, рыночная среда, проблема развития. – М.: Финансы и статистика, 2004. – С. 24.

¹¹ Основы бизнеса /Под.ред. Ю.Б.Рубина. Учебник. 6-е изд. - М.: ООО Маркет ДС Корпорейшн, 2005. – С. 47.

¹² Бусигин А. В. Основной курс: Учебник для вузов. -М.: ИНФРА-М, 1997. - С. 17.

zimmasiga oluvchi shaxs sifatida talqin qiladi va tadbirkorlikning quyidagi muhim xususiyatlarini ko'rsatib beradi: aniq maqsadlarni ko'zlash; novatorlik; faoliyatning riskliligi; o'ziga ishonch; qat'iyatlilik; javobgarlik¹³.

M.Lapusta, Yu.Starostin tadqiqotlarida «kichik tadbirkorlik - qonunchilikda belgilangan me'yorlarga muvofiq bozor iqtisodiyoti subyektlari tomonidan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishi» sifatida qayd etilgan¹⁴.

A.O'lmasov, A.Vahobovlar fikricha, «tadbirkorlik mohiyatan biznesning asosiy turi. Ammo har qanday biznesni tadbirkorlik deb bo'lmaydi. Buning uchun biznes yaratuvchilik belgilariga ega bo'lishi lozim. Biznes keng ma'noda puldan pul chiqarishga qaratilgan faoliyat. Ammo bunday faoliyat yaratuvchilik bo'lganda tadbirkorlik yuzaga keladi, ya'ni bironta ishga kapital qo'yib, resurslarni samarali ishlatib, tovar va xizmatlarni yaratish tashkil etilganda buni tadbirkorlik deb aytish mumkin», deya ta'riflaydilar¹⁵.

“Ekonomiks” darsligining mualliflari K.R.Makkonell, L.Bryu fikricha, “kichik biznes - bu shunday sohaki, u tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilishi jarayonida er resurslari, kapital va mehnatni birlashtirish bo'yicha tashabbusni o'z zimmasiga oladi, shu bilan birga biznesni yuritish jarayonida asosiy qarorlarni qabul qiladi. Shuningdek, kichik biznes yangilik yaratuvchi bo'lib, tijorat asosida yangi mahsulotlar, yangi ishlab chiqarish texnologiyalari yoki biznesni tashkil etishning yangi shakllarini ishlab chiqarishga intiluvchi, riskli faoliyatdir”¹⁶.

O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi Qonunida (25.05.2000. 3-modda): “Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat” sifatida ta'riflangan.

Bugungi kunda tadbirkorlik iqtisodiyotda yaratuvchi kuch va butun bir ijtimoiy-iqtisodiy voqelik bo'lib, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning jamiyat

¹³ Сирополис Николас К. Управление малым бизнесом. Руководство для предпринимателей: Пер. с англ. - М.: Дело, 1997. - С. 50-60.

¹⁴ Лапуста М.Г., Старостин Ю.Л. Малое предпринимательство. - М.: ИНФРА-М, 1997. - С. 5.

¹⁵ O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. - T.: Sharq, 2006. - B. 142.

¹⁶ Макконелл К.Р., Брюс Л. Экономика. Т-1. – М.: «Дело», 1992. – С. 38.

hamda vakolatli organlar bilan iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishning ko'p qirrali shakllarini qamrab oladi. Bozor munosabatlarining shakllanishi esa jamiyatning turli ehtiyojlarini qondiruvchi tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi kungacha iqtisodchi-olimlar tomonidan olib borilgan ko'pgina izlanishlarda bildirilgan xulosalarni o'rganish natijasida va olib borilgan tadqiqotlar asosida shakllangan fikrimizga ko'ra, tadbirkorlik biznesning asosiy unsuri, asosiy negizi bo'lib, uning rivojlanishi biznesni tashkil etish uchun xizmat qiladi. Tadbirkorlik faoliyati biznesning bir shakli sifatida namoyon bo'ladi va uning turli sohalarida amalga oshiriladi. Biroq, biznes, kengroq tushuncha, uning jabhasi, "jo'g'rofiyasi" keng. Agar biznes pul topish va uni ko'paytirishni anglatga, tadbirkorlik yaratuvchanlik bilan, iqtisodiy faoliyat orqali daromad topish va uni ko'paytirishdir. Tadbirkorlik va yaratuvchanlik bir-biri bilan bog'liq va bir butunlikni tashkil qiladi, deb xulosa qilish mumkin.

"Tadbirkorlik", "biznes", "xususiy tadbirkorlik" tushunchalari mazmuni va uning turli davrlarda turli xil iqtisodchi-olimlar tomonidan ta'rif-talqin etilishini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida mazkur atamalarga zamonaviy va hozirgi zamon ruhi-mazmundagi ta'riflarni ishlab chiqdik. Fikrimizcha, mavjud qonunchilikka muvofiq moddiy, moliyaviy va mehnat resurslardan unumli foydalanish, o'z tajribasi va bilimi, yaratuvchanlik va risk asosida foyda olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyatni – tadbirkorlik; amaldagi qonunlar doirasida har qanday faoliyat bilan shug'ullanib, shu jumladan, tovar va xizmatlar yaratish orqali foyda olishga qaratilgan iqtisodiy faoliyatni – biznes; tadbirkorlik subyektlarining qonun doirasida o'z va o'zga mablag'lar hamda intellektual salohiyati evaziga yaratuvchanlik va risk asosida turli iqtisodiy o'zgarishlarga tez moslashuvchi, aholining talabini qondiruvchi mahsulotlar (ish, xizmat) ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali foyda olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyatni – xususiy tadbirkorlik, deb ta'riflanishini o'rinli deb hisoblaymiz. Tadbirkorlik yaratuvchanlik xususiyati bilan biznesdan farqlanadi va "kichik" so'zi mulk shaklini emas, aksincha, korxona ko'lamini tavsiflaydi, xolos.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mohiyatini tushunishda uning amal qilishi uchun zarur bo'lgan muhim ikki shartni alohida ta'kidlash lozim: birinchisi, jamiyatda mo'l-ko'pchilikni ta'minlashga qaratilgan biznesning oliy tamoyili bo'lmish raqobat qonunining amal qilishi; ikkinchisi, biznes faoliyati keng taraqqiyoti uchun bozor muhitining mavjudligidir.

Jahon amaliyotida tasdiqlanishicha, yuqori texnikadan muvaffaqiyat omili sifatida keng foydalanilgan, yangi sohalarni o'zlashtirish bilan bog'liq hamda tadbirkorlik vazifasini aniq bajarayotgan korxonalar, asosan, kichik korxonalar ko'rinishida vujudga kelmoqda. kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning asosiy ustuvorligi ham uning tez sur'atlar bilan rivojlanib, kelajakda juda yirik korxonalarga aylanishida o'z aksini topadi¹⁷.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari o'ziga xos tarkibiy tuzilishga ega. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari taraqqiyoti tajribalarini o'rganish uning tarkibiy tuzilishida quyidagilarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi: korxona maqominigina o'zgartirish hisobiga tashkil etilgan kichik korxonalar, xususiylashtirish hamda qayta tashkil etish jarayonining natijasida vujudga kelgan kichik korxonalar, yangi tashkil etilayotgan kichik korxonalar.


Shuni alohida ta'kidlash lozimki, kichik korxonalar birinchi turining faoliyati yetarli samara bermayotgan bo'lsa, uchinchi turining barqaror taraqqiyoti uchun etarli sharoitlar yaratilishi muhimdir.

Korxona maqominigina o'zgartirish hisobiga tashkil etilgan kichik korxonalar faoliyatida korxonani boshqarish mexanizmidagi ilgari mavjud bo'lgan kamchiliklar saqlanib qoldi. Shuning uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari faqat shaklning o'zgarishiga asoslanganligi uchun ham bozor sharoitiga moslashgunga qadar samarasiz faoliyat ko'rsatdi.

Kichik biznesning muhim belgilaridan biri o'z ishiga, mulkiga bevosita egalik qilishda namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, uning o'ziga xos

¹⁷ Masalan "Soni" kompaniyasi 1946-yilda 20 kishidan iborat kichik korxona tarzida ish boshlagan bo'lsa, hozirgi kunga kelib, 476 mlrd. ien.ga teng kapitalga va 168 ming nafar ishchi-xizmatchisiga ega bo'lgan yirik sanoat ishlab chiqarish korxonasiga aylandi. Manba: Karimov A.A. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va audit. – T.: Iqtisod-moliya, 2008. – B. 79.

xususiyatlarini alohida ajratib, quyidagi 1.1-rasm orqali tasvirlash mumkin.



1.1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari¹⁸

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning muhim belgilari va afzalliklari sabab, soha taraqqiyotiga XIX asrning 60-yillarida e'tibor berilib, bu davrda qo'l mehnatining yuqori bo'lishi bilan birga yakka tartibdagi tadbirkorlik alohida o'rin tutgan. Mayda hunarmandchilik hamda savdogarlik rivojlangan. Biroq, erkin tadbirkorlik bilan shug'ullanishga yo'l qo'yilmagan.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlaridan boshlab, jamiyatda tadbirkorlik ruhini qaror toptirib, shu asosda odamlarda mulkdorlik tuyg'usini uyg'otishga jiddiy e'tibor qaratildi.

¹⁸ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari erkin faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xususan, byurokratik to'siqlarni olib tashlash, yuqori likvidli mahsulotlar, xom ashyo va materiallarni ochiq birja savdolarida sotishni tashkil etish, yangi tuzilayotgan tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olishni osonlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sertifikatlashga doir qarorlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlarga keng imkoniyatlar ochib berdi.

Kichik biznesning ravnaq topishini rag'batlantirish va tadbirkorlarning haq-huquqlarini himoya qilish yo'lida davlat boshqaruv organlari bilan bir qatorda nodavlat va xalqaro tashkilotlar ham faoliyat olib bormoqda. Ular kichik korxonalar va yakka tadbirkorlarga amaliy yordam berish, jamiyatda tadbirkorlik harakatini kengaytirish hamda rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga munosib hissa qo'shishmoqda.

Tadbirkor va ishbilarmonlarning bunyodkorlik harakatlari mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lida olib borilayotgan islohotlarning ajralmas qismi sifatida o'zining ijobiy samarasini bera boshladi. Eng asosiysi – so'nggi yillarda iqtisodiy o'sish sur'atlari barqaror tus oldi. Erkin iqtisodiyotning sinalgan tamoyillariga izchil amal qilinishi natijasida tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati oshdi. Pirovardida, kichik biznesning shakllari kengayib, aholining mulkka egalik tuyg'usi uyg'ona boshladi. Bu hol kichik va o'rta mulkdorlar sinfining shakllanishiga keng yo'l ochib bermoqda.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari, ularning faoliyati haqida gapirganda, ushbu subyektlar faoliyat olib borayotgan muhit – iqtisodiy, ijtimoiy va qonuniy tizim muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari uchun ma'lum iqtisodiy zona mamlakat misolida olinadigan bo'lsa, shu mamlakatda ushbu faoliyat bilan shug'ullanishning qonuniy asoslari qay darajada yo'lga qo'yilgan va u amaliyotda qanday ishlamoqda; mamlakatda kichik biznes va tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun iqtisodiy imkoniyatlar mavjudmi, ushbu faoliyat turlari bilan shug'ullanishning ijtimoiy jihatlarini o'zida nimalarni mujassam etadi, degan savollar tug'ilishi tabiiy. Shunday ekan, yuqoridagi faktorlarni o'z

ichiga oluvchi O'zbekistondagi kichik biznes va tadbirkorlik muhitini o'rganish va uning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish ushbu sohani yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari ish tajribasi, ularning yirik korxonalarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega ekanligini ko'rsatdi. Jahon tajribasi tasdiqlashicha, kichik biznes subyektlari sektorini rivojlantirish turli tovar bozorlarida haqiqiy raqobat muhitini shakllantirish, katta shaharlarda va ayniqsa qishloq joylarida mehnat resurslaridan hamda mahalliy xom ashyo resurslaridan oqilona foydalanishga imkon yaratadi.

Kichik biznes subyektlarini tashkil etish zarurligi quyidagi holatlar bilan ifodalanadi:

- bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatda xususiylashtiriladigan, sinayotgan korxona va tashkilotlarda ishsizlar paydo bo'la boshlaydi. Kichik biznes subyektlarini ta'sis etish natijada kishilarga yangi mulk va ish o'rnini yaratishga imkon beradi;

- kichik biznes subyektlarining paydo bo'lishi yirik biznes monopolizmini tugatishga imkon beradi, iste'mol bozorini shakllantiradi, erkin raqobat muhitini yaratadi, infratuzilma ob'ektlarini rivojlantirishni tezlashtiradi;

- bu subyektlar iqtisodiyotning innovatsion majmuasi asosi bo'ladi. Juda tor yo'nalishdagi korxonalar yangiliklarni joriy qilish, sotish, iste'molchilarga etkazish bilan shug'ullanishadi;

- qo'shma korxonalar orqali jalb qilinuvchi xorijiy investitsiyalar asosan kichik biznesga yo'naltiriladi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan kichik biznes mahalliy bozorga tovar va xizmatlarning ayrim turlaripi ayirboshlash uchun taklif etish orqali daromad topish faoliyati bilan shug'ullanuvchi qatlamini ifodalaydi. Kichik biznesning o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lib bozordagi tez moslasha borish, sifatli mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati; nisbatan kisha muddatlarda aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni kondira olishi; dastlabki sarmoya hajmining nisbatan kamligi; tez orada yangn ishchi o'rinlari barpo etish va bandlik

muammosini hal etishga ko'maklashish imkoniyati; biznes egasining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdagi bevosita ishtiroki va boshqalar.

Kichik biznesning iqtisodiy jihatlari hamda manfaatli xususiyatlari quyidagicha yoritiladi:

- kichik biznes – aholining talay qismi uchun mehnatini qo'llaydigan jabha va daromad manbai, etarli malaka va tajriba bo'lmagan, egiluvchan jadvalli ish kunini istagan aksariyat mehnat resurslarini mashg'ul etuvchi mehnat bozorining eng moslashuvchan qismi. Ayollar, ilk bor ish qidirayotgan yoshlar, ma'lumoti va mehnat tajribasi yuqori darajada bo'lmagan shaxslar ko'pincha faqat shu erdan ish topishlari mumkin. Bu jabhada mashg'ul kishilarning aksariyat qismi uchungina emas, balki ularning oila a'zolari uchun ham asosiy daromad manbai bo'lishi kichik biznes milliy farovonlikning o'sishi uchun muhim omilga aylanganidan dalolat beradi;

- kichik tadbirkorlik aholi orasida ish yuritish va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, uning bozor munosabatlariga moslashganlik darajasini oshirishda potentsial samarali vositadir. U fuqarolarga nafakat o'z ishchi kuchi, balki o'z mulki, jumladan, ishlab chiqarishga mo'ljallangan mulk egasi bo'lishiga imkon yaratib, o'rta sinf-jamiyatning progressiv taraqqiyotini ta'minlashga qodir, demokratiya va ijtimoiy barqarorlikdan manfaatdor ijtimoiy qatlamning shakllanishi uchun asos yaratadi;

- kichik biznes butun iqtisodiyotning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. U iste'mol talabining o'zgarishlariga hammadan tez moslashadi, iqtisodiy vaziyatning tebranishlariga muvofiq tarzda o'z faoliyati ixtisosini tez va nisbatan asoratsiz o'zgartira oladi;

- kichik biznes iqtisodiyotning hududiy tuzilmasini yaxshilaydi. Alohida shaxs uchun esa kichik biznes bilan shug'ullanish band bo'lish va daromad olishga, ishi va shaxsiy hayotini yaxlitroq birlashtirishga, o'z kobiliyati va iste'dodini namoyon qilishga imkon yaratadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish amalga oshirayotgan islohotlarimizning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Chunki birinchidan, kichik biznes

rivojlangan jahon iqtisodiyotining tarkibini tashkil etuvchi muhim tarmoq bo'lib hisoblanadi. Uning faoliyati nafaqat kichik biznesning, balki butun mamlakat iqtisodiyotining muvaffaqiyatli rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Bundan tashqari ichki bozorning iste'mol tovarlari bilan to'ldirilishi va aholiga turli xizmatlar ko'rsatilishi, eksport salohiyatining o'sishi, aholining ish bilan ta'minlash va uning real daromadlarini ko'paytirish masalalarining echimi ham ana shu tarmoqning nechog'lik barqaror rivojlanishiga bog'liq.

Ikkinchidan, iqtisodiyotning globallashuvi jarayonida jahon bozorida raqobat yanada kuchayadi. Bunday sharoitda aynan kichik biznes yirik ishlab chiqaruvchilarga nisbatan kapital mablag' sarfini ham talab qilishi, ixchamligi bilan bir qatorda, zarur tamoyillarga, bozor kon'yukturasining o'zgaruvchan talablariga hamda vaqti-vaqti bilan bo'lib turadigan iqtisodiy inqirozlarga tezroq moslasha olish, ishlab chiqarish quvvatlarini jadal modernizatsiya qilish imkoniyatiga ega.

Dunyo bozorida iste'mol mollari kon'yukturasi hozirgi zamon sharoitida o'rtacha har 9 oyda o'zgarib turadi. Agar shuni hisobga olsak kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati mamlakat iqtisodiyotining izchil rivojlanishida nechog'lik muhim ahamiyatga ega ekani yaqqol ko'rinadi.

Yirik korxonalarni butlovchi qismlar, materiallar yetkazib beradigan tarmoqlarni barpo etish rag'batlantirildi. Bu esa sanoatda import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish muammosini hal etish imkonini beradi hamda tashqi bozorga tovarlar va texnologiyalarni eksport qilish hajmining o'sishiga olib keladi. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi barqaror ravishda o'sib borishini ta'minlamoqda. Bu esa barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, modernizatsiya qilish jarayonlari va mulkiy munosabatlarning takomillashuvi natijasida yildan-yilga kichik biznes subyektlari soni ortib bormoqda.

Shu bilan birga, jahon bozorida raqobat keskinlashib borayotgan bir paytda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka yangi imkoniyat, imtiyoz va preferentsiyalar yaratib berish va uning rivojini yangi bosqichga olib chiqish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Shu maqsadda, huquqiy-normativ qarorlarni yanada takomillashtirish, qulay ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, pirovardida sohaning investitsion jozibadorligini oshirish, tadbirkorlik subyektlariga xizmat qiluvchi infratuzilmalar, xususan, kommunal sohaga innovatsion yutuqlarni tadbiq etish, soliq siyosatini yanada takomillashtirish, banklardan kredit olishda kreditning garov asosida ta'minlanishiga yordam beruvchi tashkilotlarni tashkil etish lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz taraqqiyotida, xalqimizning hayot darajasini munosib bosqichga ko'tarishda, bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot mexanizmlarini takomillashtirish, zamonaviy demokratik davlat qurishda hal qiluvchi o'rin va ta'sirga ega bo'lib bormoqda.


1.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari

Barchamizga ma'lumki, 2018-yil yurtimizda "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-auvvatlash yili" deb e'lon qilindi. Mazkur nomdan kelib chiqib bir qator davlat dasturlari hamda chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqilib bugungi kunda hayotga keng tatbiq qilinmoqda.

Shu kunga qadar "Xususiy mulkni himoyalash va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida", "Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish shart-sharoitlari to'g'risida", "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi yangi qonun loyihalarini, shuningdek, "Tadbirkorlik faoliyati erkinliklarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunninig yangi tahrirdagi loyihasini hamda "Soliq kodeksi"ga, "Ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash to'g'risida"gi Qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish yuzasidan tegishli qonun loyihalari ishlab chiqilgan bo'lsa 2016-yilning 5-oktyabrida PF-4848 sonli "Tadbirkorlik faoliyatining jadal

rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi Farmoni qabul qilinishi bilan sohadagi byurokratik to'siqlarni bartaraf etish masalasi o'z yechimini topdi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqarish, eng avvalo, huquqiy jihatdan himoyalangan bo'lishi kerak. Bunday himoyalash faqatgina davlatning me'yoriy hujjatlari asosidagina amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakllari quyidagilardan iborat. Bu tashkiliy-huquqiy shakllarning birinchisidan tashqari barchasida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lish kerak.



1.2-rasm. Tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakllari¹⁹

Tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqarilishi, uning me'yoriy-qonuniy asoslarini yaratish va doimiy takomillashtirib borishni taqozo qiladi. Tadbirkorlikni me'yoriy-qonuniy tizimi avvalo:

¹⁹ Iqtisodiy adabiyotlardan foydalangan holda muallif tomonidan tuzilgan.

– qonunchilikda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning erkinligi, uning himoyasini va qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydigan aniq-huquqiy kafolatlarni belgilash;

– mavjud me'yoriy-huquqiy ba'zani yangi qonunlarga muvofiqlashtirish, xususiy mulkni hech kim olib qo'ya olmaydigan huquqni konstitutsiya orqali mustahkamlash bilan bog'liqdir.

Bu esa o'z navbatida fuqarolar va xususiy korxonalarning mustaqil ravishda xo'jalik faoliyatini yuritishini, xususiy mulk himoyasi va dahlsizligini kafolatlaydi. Bu haqida asosiy Qonunimiz - Konstitutsiyada ham qayd etilgan²⁰. Tadbirkorlik faoliyatining me'yoriy-huquqiy bazasini yaratilishi va unda belgilangan huquqlarni amalga oshirilishida quyidagi tuzilmalar ishtirok etadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik - inson faoliyatining alohida sohasi hisoblanganligi uchun turli hil ijtimoiy me'yorlar ta'sirida bo'ladi. Ularning ichida huquqiy me'yorlar, ishdagi saranjomlik, ishbilarmonlik udumlari, odob va ahloq qoidalariga alohida ustuvorlik beriladi.

Fuqarolarning muayyan toifalariga, avvalo davlat muassasalarida, huquqni himoya qilish organlari xodimlariga, davlat korxonalari, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini nazorat qilish xodimlariga qo'shimcha tarzda tadbirkorlik bilan shug'ullanish ta'qiqlangan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari har xil qonun hujjatlari va boshqa me'yoriy hujjatlarda, ya'ni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik Kodeksi, amaldagi qonunlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida, vazirliklar va idoralarning huquqiy hujjatlarida belgilab beriladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan mashg'ul (jismoniy va yuridik) shaxslar qonun hujjatlarida²¹ ko'rsatilganidek quyidagilarni o'z ichiga oladi:

²⁰ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2014. 53 modda.

²¹ O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" gi Qonunining 3-moddasi.



1.3-rasm. Tadbirkorlik faoliyatining me'yoriy-huquqiy bazasi²²

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning qonunda ta'qiqlanmagan har qanday biznes va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun o'ziga tegishli mulkdan foydalanish erkinligi;

²² Qonunchilik hujjatlariga asosan muallif tomonidan tuzilgan.

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning xo'jalik faoliyatidagi va uning natijalarini taqsimlashdagi mustaqilligi;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xodimlarni yollashni amalga oshirishning ixtiyoriyligi;

- mulkchilik shaklidan qat'iy nazar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish xo'jalik faoliyati barcha turlarining qonun oldida teng huquqliligi;

- foyda olish va manfaatdorlikka erishish yo'lida qonun doirasida va unda ruhsat etilgan faoliyat turi bilan shug'ullanish mumkinligi.

Hozirgi darvda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida korxonalar, firmalar yoki tadbirkorlik tashkilotlari tuziladi. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarni tuzish, ularning faoliyat ko'rsatishi, qayta tashkil etish va tugatishning umumiy huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslari O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bozor iqtisodiyoti tizimida yakka mehnat faoliyati va xususiy tadbirkorlik faoliyatining eng oddiy shakllarini o'z ichiga olgan bo'lib, hozirgi kunda mamlakatimizda an'anaviy qadimgi bir qator sohalarda g'oyat rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Yakka mehnat faoliyati hunarmandchilik va oilaviy mehnat an'anasi bilan chambarchas bog'liqdir. Yakka mehnat faoliyati ommaviyligi uchun qonun hujjatlarida uni amalga oshirishning eng soddalashtirilgan tartiblari belgilangan. Chunonchi, yuridik shaxs hosil qilmay, qonun va hujjatlarda ruxsat berilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan ro'yxatdan o'tkazish to'lovini olish va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Qonunga muvofiq amalga oshiriladi. Shuningdek, litsenziya asosida yo'l qo'yiladigan yakka tartibdagi xususiy tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari (yakka shifokor, farmatsevtika va boshqalar), Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va maxsus Nizomlari bilan tartibga solinadi va boshqariladi. Ayni vaqtda mahsulotlarni

tayyorlash va sotish bilan shug'ullanuvchi xususiy tadbirkorlar muayyan majburiyatlarni bajarishlari (jumladan, muntazam tibbiy ko'rikdan o'tish) shart.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatida yollanma mehnatdan foydalansa u yuridik shaxs hisoblanadi va tadbirkorlikni O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik to'g'risida"gi, "Mulkchilik to'g'risida"gi Qonunlari va boshqa me'yoriy hujjatlari asosida amalga oshirishga majbur.

Tadbirkorlikni tashkiliy-huquqiy shakllari tizimida xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarining har xil turlari etakchi o'rin tutadi.

– xo'jalik shirkati - umumiy nom ostida birgalikda tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun bir nechta shaxsning birlashuvidir.

– xo'jalik jamiyati - tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun bir shaxs yoki bir nechta shaxsning mulklarini birlashtirish (ajratish) yo'li bilan tashkillanadigan korxonadir.

Xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari - to'liq shirkat, kommandit, shirkat, mas'uliyati cheklangan jamiyat, qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat, aksionerlik jamiyati kabi shakllarga ega:

1. Ishtirokchilari shirkat nomidan o'zaro tuzilgan shartnomaga muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan birgalikda shug'ullanadigan va shirkatning majburiyatlari bo'yicha o'zlariga tegishli barcha mulk bilan javobgar shirkat, to'liq shirkatdir. Ishtirokchilarning bir qismi shirkat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun qo'shilgan ulush yoki badallar chegarasida tavakkal qiladigan va shirkat amalga oshiradigan tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etmaydigan (kommanditlari) shirkat kommandit shirkat deb ataladi.

2. Mas'uliyati cheklangan jamiyat - ustav fondi (ustav sarmoyasi) ta'sis hujjatlarida belgilangan miqdordagi ulushlarga bo'lingan, bir yoki bir necha shaxslar tomonidan ta'sis qilingan jamiyatdir. Bu jamiyat ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydi va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zi qo'shgan badal qiymati doirasida tavakkal qiladi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ta'sis hujjati ta'sisshilar imzolagan shartnoma va

ta'sischilar tasdiqlagan ustavdir (agar mas'uliyati cheklangan jamiyatni bir kishi ta'sis qilsa, uning ta'sis hujjati ustav hisoblanadi).

3. Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatda ishtirokchilar uning umumiy majburiyatlari bo'yicha (jamiyatning mulki etishmaganda) qo'shimcha ravishda va to'liq sheriklikdagidek butun o'z mulklari bo'yicha to'liq emas, balki o'zlari qo'shgan badalga karrali ravishda (uch karra, olti karra va hokazo) javobgar bo'ladi.

4. Aksiyadorlik jamiyati xo'jalik jamiyatining shakllaridan biri. Aktsiyadorlik jamiyatlarini tuzish va faoliyatini tashkil qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi qabul qilgan «Aktsiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonun orqali tartibga solinadi. Ushbu qonunning 2-moddasiga ko'ra, ustav fondi jamiyatning aksiyadorlariga nisbatan majburiyatlarini tasdiqlovchi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan xo'jalik yurituvchi subyekt aksiyadorlik jamiyati deb yuritiladi. Aktsiyadorlik jamiyati – bunday jamiyat ochiq turda va yopiq turda bo'ladi:

– ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyadorlari o'zlariga tegishli aksiyalarni boshqa aksiyadorlarni roziligisiz erkin tasarruf qila oladigan jamiyatdir. Chiqarilgan aksiyalarga ochiq obuna o'tkazish va ularni erkin sotish huquqiga ega. Ta'sischilarning eng kam soni va aksiyadorlarning soni ham cheklanmagan²³.

– yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati - aksiyalar faqat uning ta'sischilari o'rtasida belgilangan shaxslar doirasi ichida taqsimlanadigan jamiyat bo'lib, uning ta'sischilari kamida uch kishi, aksiyadorlar soni esa ellik kishidan ortmasligi lozim²⁴.

Bozor iqtisodiyotining jadal rivojlanishi negizida milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligi bilan integratsiyalashuvini aks ettiruvchi qo'shma korxonalar yuzaga keldi. Qo'shma korxona mamlakat hududida xorijiy investor ishtirokida barpo etilgan korxonadir. Qo'shma korxonaning ustav fondiga har bir

²³ Tuxliev N., O'lmasov A. Ishbilarmonlar lug'ati. -T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1993. 7-bet.

²⁴ Tuxliev N., O'lmasov A. Ishbilarmonlar lug'ati. -T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1993. 8-bet.

ishtirokchining hissa qo'shish muddati, hajmi, tartibi va baholanishi ta'sis hujjatlarida belgilab qo'yiladi. Qo'shma korxonalar O'zbekiston hududida tuzilishi, uning filial va vakolatxonalari boshqa mamlakatlarda ham bo'lishi mumkin. Qo'shma korxonalarni tashkil qilish va ularning faoliyati O'zbekistonda amaldagi qonunlarga asoslanadi.

Umuman xo'jalik subyektlari tijorat va notijorat tashkilotlariga bo'linadi. Tijorat tashkilotlari faoliyatining asosiy maqsadi foyda olishdan iborat. Notijorat tashkilotlarining asosiy maqsadi esa foyda olish emas, balki beg'araz yordam ko'rsatishdir (diniy, turli jamoat, halqaro tashkilotlar) va foyda olingan taqdirda ham korxona a'zolari o'rtasida taqsimlanmaydi.

Tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli turli mulkchilik ko'rinishlari, kapital egalari maqomi, olingan foyda va zararlarning taqsimlanishi, xo'jalik subyektlari ishtirokchilarining soni, mulkiy mas'uliyat va javobgarlik, mol-mulk manbalari va boshqarish xususiyatlari bilan ham bog'liqdir.

Mulkchilik shakllariga ko'ra kichik korxonalarning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Davlat mulkiga asoslangan kichik korxonalar;
2. Jamoa mulkiga asoslangan kichik korxonalar;
3. Fuqarolarning mulkiga asoslangan yakka tartibda ishlay-digan kichik korxonalar;
4. Ijara korxonalari;
5. Kichik qo'shma korxonalar.

Shuningdek, kichik biznes korxonalari mulk shaklidan qat'iy nazar o'z faoliyatlarini tavakkal va mulkiy javobgarlik asosida amalga oshiradilar. Tadbirkor yoki ishbilarmonning hatti-harakatlari oqibatida kimgadir moddiy yoki ma'naviy ziyon etgan bo'lsa, u buning uchun mulkiy javobgar hisoblanadi. Mulkiy javobgarlik faqat shartnoma majburiyatlarini bajarmaganlik uchungina emas, balki tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida boshqa subyektlarga etkazilgan ziyon uchun ham vujudga kelishi mumkin. Tadbirkorga tegishli barcha mol-mulk kreditorlarning talablarini qondirish uchun sarflanishi mumkin.

Tadbirkorning maqomi va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini berish tartibi haqidagi masala ham g'oyat muhim. Amaldagi qonun hujjatlari bo'yicha jismoniy shaxs, masalan, tadbirkorlik faoliyati bilan faqat tegishli davlat muassasalari (tuman, shahar hokimligi)da ro'yxatdan o'tganidan va xususiy tadbirkorlar reestriga kiritilgandan keyingina shug'ullanish huquqiga ega.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini yuritishga doir ishbilarmon va tadbirkorlarga yuklanadigan maxsus majburiyatlar doirasiga quyidagilar kiradi:

- o'zining bank hisob varag'ini ochish;

- tadbirkorni savdo reestrda ro'yxatdan o'tkazish shaklida u haqidagi ma'lumotlarni e'lon qilish; bundan maqsad - uchinchi shaxslarga tadbirkorning huquqiy maqomi va uning mulkiy ahvoli haqidagi umumiy ma'lumotlarni habar qilish;

- kreditorlarning tadbirkordan qarzni undirishga doir maxsus ishni ochishlari uchun olingan majburiyatlar bo'yicha to'lovlarning to'xtatilganligi haqida axborotni belgilangan tartibda e'lon qilish;

- xo'jalik faoliyatining borishi va natijalari haqida bir nechta maxsus reestrlar (savdo daftarlari) yuritish; bundan maqsad-faoliyatning borishini nazorat qilib turish, uchinchi shaxslar bilan munozaralar vujudga kelganda esa operatsiyalarning o'tkazilganlik faktlarini isbotlashni osonlashtirish.

Tadbirkorlarning manfaatlarini ta'minlash uchun ba'zi maxsus huquqlar ham beriladi. Masalan, firmaga nom berish huquqi, bozorda uchinchi shaxslarning noinsoflik bilan raqobat qilishlariga qarshi o'z manfaatlarini himoya qilish huquqi va boshqalar.

Tashkil bo'lish tartibi, qonuniy huquqlarning hajmi bo'yicha respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining uch turi farq qilinadi:

- tijorat yuridik shaxslar;

- notijorat yuridik shaxslar;

- yuridik shaxsni hosil qilmagan xususiy tadbirkorlar (jismoniy shaxslar).

Korxona tashkil bo'lib va davlat ro'yxatidan o'tkazilgach, tijorat yuridik shaxslar tadbirkor maqomini oladi. Tijorat tashkilotlar (korxonasi) hisoblangan

yuridik shaxs davlat korxonasi, xo'jalik jamiyati va shirkati, kooperativ, muassasa, jamoat birlashmasi va hokazo shaklida tuzilishi mumkin.

Har bir fuqaro xususiy (yakka) tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab, yuridik shaxs hosil qilmay turib ham tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Jismoniy shaxsning «tadbirkor» maqomini olishi uchun ushbu ikki: umumiy va maxsus shartlar mavjud bo'lishi lozim²⁵.

Umumiy shartlar avvalo, huquq subyektini sifatida jismoniy shaxsning muayyan alomatlari: to'liq ma'noda ishga layoqatlilik yoki huquqqa egalik alomatlari bilan bog'liq. Ishga layoqatliligi cheklangan, ishga layoqatli bo'lmagan va vaqtinchalik muayyan huquqlardan mahrum qilingan (masalan, ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazo muddatini o'tayotgan) shaxslar tadbirkorlik bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun zarur bo'lgan maxsus shartlar, avvalo, tadbirkorlikning ma'lum turi tarzi bilan tadbirkorda shu faoliyat turi uchun talab qilingan kasbga doir ko'nikmalar va tayyorgarlik bo'lishi shartlari bilan bog'liq.

Umuman, O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti va munosabatlarining shakllanish jarayonida tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq zaruriy me'yoriy-qonuniy asos yaratildi va bu jarayon takomillashtirib borilmoqda.

1.3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning xorijiy mamlakatlar tajribalari

Ma'lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u raqobat muhitini saqlab turish orqali iqtisodiyotning samarali faoliyat ko'rsatishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kichik biznesning rivojlanishi ko'p jihatdan davlatning mazkur sektorni tartibga solish bo'yicha olib boradigan siyosatiga bog'liq. Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, rivojlangan

²⁵ Mamatov B. O'zbekistonda kichik va o'rta biznes: hozirgi ahvoli, muammolari, istiqboli. Экономическое обозрение. №3 (13), iyun, 2000. 81-83 betlar.

mamlakatlarda iqtisodiyotda raqobat muhitini saqlab qolish va raqobat mexanizmining samarali faoliyatini ta'minlash maqsadida kichik va xususiy tadbirkorlik uchun qulay makroiqtisodiy muhit yaratilishi bilan birga unga davlat tomonidan turli xil yordamlar ko'rsatiladi. Kichik va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va raqobat muhitini shakllantirish bo'yicha jahon tajribasi boy va xilma xil bo'lsa-da, ular bir-birlaridan ushbu jarayonni amalga oshirish mexanizmi, usullari va vositalari jihatidan farq qiladi. Mazkur tajribani o'rganish, uning ijobiy tomonlaridan mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda samarali foydalanish iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilayotgan bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Kichik va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi uchun qulay iqtisodiy-ijtimoiy va huquqiy muhitni barpo etish rivojlangan mamlakatlarda, eng avvalo, monopoliyaga qarshi qonunlarni o'z ichiga oladi. Chunonchi, AQSh nafaqat yirik trestlarning, balki antitrest qonunchiligining ham vatani hisoblanadi. Dastlabki, trestlarga qarshi qonun AQShda 1890-yildayoq qabul qilingan bo'lib, Sherman qonuni nomi bilan mashhurdir. Uning asosiy g'oyasi savdoni monopollashtirish, savdoni cheklash bo'yicha ochiq va sirli bitimlarni noqonuniy harakat sifatida tavsiflashdan iborat. Sherman qonunining yana bir ahamiyatli jihati shundan iborat ediki, monopoliyalar barpo etish va erkin savdoni cheklashga olib keluvchi korporatsiya va firmalarning narxni cheklovchi siyosatini, o'zaro raqobatchi korxonalar aktsiyalarini sotib olishni ta'qiqlar edi. Keyingi antitrest qonuni 1914-yilda qabul qilindi (Kleyton qonuni). Bu qonun o'sha paytdagi real shart-sharoitlardan kelib chiqqan bo'lib, to'rtta jihatni o'zida aks ettiradi: birinchidan, narx cheklashlarining ma'lum shakllarini ta'qiqlash. Ikkinchidan, o'zaro bog'liq shartnomalarni bekor qilish (bunday shartnomalarning mohiyati shundan iboratki, unda xaridor o'zi uchun zarur bo'lgan mahsulotlar bilan birga zarur bo'lmagan tovarlarni ham sotib olishga majbur bo'ladi). Uchinchidan, natijasi raqobatni cheklashi mumkin bo'lgan sharoitda aksiyalarni sotib olib o'zaro birlashishni cheklash. To'rtinchidan, turli direktoratdagi ayni bir shaxs vakilligida o'zaro bog'liq direktoratlarning birlashib

ketishini ta'qiqlash jarayonlaridir. Trestlarga qarshi qonunlardan navbatdagisini 1936-yilda qabul qilingan va Robinson-Petmen nomi bilan ataladi. Mazkur qonun Kleyton Qonuniga tuzatish shaklida qabul qilingan. Bu qonunda narx cheklashlarini amalga oshiruvchi korporatsiyalarni jinoiy javobgarlikka tortish ko'zda tutilgan.²⁶

Antitrust amaliyotida yangi jonlanish urushdan so'ng 1950-yilda boshlandi. Shu yili kichik biznes kurashi ta'sirida Kleyton qonuniga yangi tuzatishlar kiritildi (Seller-Kefover). Endilikda har qanday yirik korxonalarning birlashishi Hukumat darajasida ko'rib chiqiladigan bo'ldi. Ushbu tendensiyaning susayishi XX asrning 80-yillarida yuz berdi. 1987-yilda AQSh hukumati "Kraysler" va "Ameriken motors" korporatsiyalarining birlashishiga ruxsat berdi. Buning sababi "Ameriken motors" korporatsiyasining inqiroziga yuz tutishi hisoblanadi. Biroq, shu yili "Coca-cola" va "Doctor Pepper"ning birlashishi ta'qiqlandi. Hozirgi paytda monopoliyaga qarshi qonunchilik Yevropaning barcha rivojlangan mamlakatlari va Yaponiyada mavjud. Bunday qonun O'zbekistonda ham qabul qilingan. Masalan, Yaponiyada monopoliyaga qarshi qonun 1974-yilda qabul qilingan bo'lib, shu yilning o'zida "Halol va haqiqiy bitimlar bo'yicha Komissiya" tashkil etilgan. Mazkur qonunda xususiy monopollashuvni va xususiy savdo qoidalarini asossiz buzishni ta'qiqlash, iqtisodiy kuchlarning haddan tashqari markazlashuvini va ishlab chiqarish, sotish, narx, texnologiya rivojlanishini asossiz cheklashni oldini olish ko'zda tutilgan.²⁷ Bu esa mamlakatda raqobat muhitini shakllantirish va rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizda "Monopoliya faoliyatini cheklash to'grisida" Qonun qabul qilingan, biroq uni amaliyotga joriy etish talab darajasida emas. Respublikamizning birinchi Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek, "... davlat tasarrufidan butunlay chiqarilgan savdo, xizmat ko'rsatish sohalarida ham monopoliya tuzilmalariga duch kelayapmiz". Shu munosabat bilan jahon tajribasini chuqur o'rganish va tahlil qilish asosida monopoliyaga qarshi qonunni kuchaytirish, monopolistik tuzilmalarni kamaytirish va tugatish, "Tabiiy

²⁶ Лапуста М.Г. Малое предпринимательство: учебник. - М.: ИНФРА - М, 2008. - 685 с. С. 358.

²⁷ Рубе В.А. Малый бизнес: история, теория, практика. - М.: ТЕИС, 2000. - 231 с. С. 158.

monopoliyalar to'grisida"gi Qonunni ijro etish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish yuzasidan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur. Rivojlangan mamlakatlar, eng avvalo, AQSh, Yaponiya va Germaniya raqobatbardoshlikka erishish masalasini o'z mamlakatlarining manfaatlaridan kelib chiqqan holda turlicha hal qiladilar. Rivojlangan mamlakatlar hukumatlarining ushbu sohadagi faoliyatlarining umumiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy, huquqiy va siyosiy vositalardan foydalanish asosida raqobatbardoshlik darajasini oshirish bo'yicha yagona davlat siyosatini yuri-tish;
- sanoatning ustuvor tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash va sanoat majmuasidagi tarkibiy o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatish;
- milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va ichki bozorni himoyalash, shu jumladan, milliy ishlab chiqaruvchilarni marketing vositasida qo'llab-quvvatlash;
- bozor infratuzilmasi rivojlanishiga yordam ko'rsatish (raqobat muhitini barpo etish, xalqaro sertifikatlarni joriy etish, sifat va standartlarni baholashning muvofiqlashtirilgan tizimini qo'llash).²⁸

Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlar tajribasi raqobatni tartibga solish va moslashuvchan bozor tarkibini shakllantirish maqsadida monopollashuv darajasini cheklashning o'ziga xos mezonlarini ishlab chiqqanlar. AQShda bozorni demonopollashtirish va raqobat muhitini yara-tishning mezoni sifatida Xerfindel — Xirshman indeksidan (XXI) foydalaniladi. Agar $XXI < 1000$ bo'lsa, bozor raqobat uchun qulay hisoblanadi. Indeksning qiymatiga qarab firmalarning o'zaro qo'shilishiga ruxsat beriladi. Quyidagi sharoitlar mavjud bo'lgan sharoitda bozor raqobat muhitini saqlab turish uchun xavfsiz hisoblanadi²⁹:

- bozorda 10 va undan ko'p firmalar mavjud bo'lsa;
- 1 ta firma bozorda 31 foizdan kam ulushga ega bo'lsa;
- 2 ta firma bozorda 44 foizdan kam ulushga ega bo'lsa;
- 3 ta firma bozorda 54 foizdan kam ulushga ega bo'lsa;

²⁸ Рубе В.А. Малый бизнес: история, теория, практика. - М.: ТЕИС, 2000. - 231 с. С. 164.

²⁹ Sorin-George Toma, Ana-Maria Grigore, Paul Marinescu. Economic Development and Entrepreneurship. Procedia Economics and Finance Volume 8, 2014, Pages 436-443. P.439.

– 4 ta firma bozorda 63 foizdan kam ulushga ega bo'lsa. Agar yuqoridagi indeks qiymati 1800 dan yuqori bo'lsa, bozorda raqobat mavjud emas deb hisoblanadi. Kichik va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi va raqobat muhitini shakllantirishda soliq tizimi alohida o'rin egallaydi. Bunday biznes shakli uchun soliq imtiyozlarini joriy etish orqali uni qo'llab-quvvatlash jahonning deyarli barcha mamlakatlarida keng tarqalgan. Rivojlangan mamlakatlarda kichik va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun keng qo'llaniladigan soliq imtiyozi foydadan olinadigan soliq stavkasining pasaytirilishi hisoblanadi. AQShda federal darajada eng yuqori korporatsiya solig'i bilan bir qatorda (hozirgi kunda bu soliq 35 foizni tashkil etadi) kichik va xususiy korxonalar uchun 15 va 25 foizlik stavkalardan foydalaniladi. Buyuk Britaniyada kichik korxonalarga pasaytirilgan stavkada soliq solinadi — 25 foiz (boshqa korxonalar uchun — 33 foiz). Yaponiyada kooperativlar, jamoat va tibbiyot tashkilotlari 27 foiz miqdorida foydadan soliq to'laydilar (soliqning umumiy darajasi 40 foizni tashkil etadi). Agar korxona 8 mln. iyenadan kam foyda olsa, ulardan 28 foiz miqdorida soliq olinadi.³⁰ Bu esa aynan kichik va xususiy korxonalar uchun katta ahamiyatga ega. Barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun soliq yukining pasaytirilishi muhim rag'batlantiruvchi samara beradi. Bu esa, ayniqsa, kichik korxonalar faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, foydaning soliqqa tortish bazasini qisqartirish katta ahamiyatga ega. Bu turli xil fondlar va zaxiralar tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunday fondlar va zaxiralar tashkil etishning soliq imtiyozlari guruhiga kiritilishiga sabab shuki, foydaning bu fondlarga ajratiladigan qismi soliqlardan ozod etiladi. Mazkur fondlar tavakkalchilik darajasini pasaytirishda muhim o'rin egallaydi. Tavakkalchilik darajasi esa kichik va xususiy korxonalarda ancha yuqori bo'ladi. Bunday amaliyotdan Germaniyada keng foydalaniladi.³¹ Bu erda soliq qonunchiligi korxonalarga noaniq majburiyatlar bo'yicha fondlar va zaxiralar tashkil etishga ruxsat beradi. Noaniq majburiyatlar bo'yicha fondlarga ajratmalar umumiy miqdorini belgilab bo'lmaydigan kelajakdagi taxminiy

³⁰ Sorin-George Toma, Ana-Maria Grigore, Paul Marinescu. Economic Development and Entrepreneurship. Procedia Economics and Finance Volume 8, 2014, Pages 436-443. P.440.

³¹ Рубе В.А. Малый бизнес: история, теория, практика. - М.: ТЕИС, 2000. - 231 с. С.168.

xarajatlarni qoplash uchun ajratilgan mablag'lar majmuidir. Bu ajratmalar ishlab chiqarish xarajatlarining oshishiga va shunga muvofiq ravishda soliqqa tortiladigan foydaning pasayishiga olib keladi. Zaxiralar turli xil ko'zda tutilmagan vaziyatlar tufayli ko'rilgan zararlarni qoplash, jarimalarni to'lash, korxona ishchilariga nafaqa to'lash va boshqa maqsadlarda tuzilishi mumkin. O'zbekistonda ushbu tajribadan foydalanish kichik va xususiy tadbirkorlik korxonalari faoliyatining barqarorligini ta'minlashga, ularni turli xil ko'zda tutilmagan voqea va hodisalar tufayli ko'riladigan zararlardan himoya qilishga, kichik va xususiy tadbirkorlik sektorida raqobat mexanizmining samarali amal qilishiga yordam beradi. Kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlarining barqaror faoliyat ko'rsatishi ko'p jihatdan soliq qonunchiligining o'zgarishiga bog'liq. Soliq qonunchiligidagi tez-tez o'zgarishlar kichik biznes faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi: bunday holatda tadbirkorlar soliqdagi o'zgarishlarni o'rganishga ulgurmaydilar. Natijada soliq sohasidagi jiddiy xato tadbirkor uchun og'ir oqibatni keltirib chiqaradi. Shu sababli Germaniyada har bir auditor kelgusi yilda soliq qonunchiligida bo'ladigan o'zgarishlar to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi. Yil davomida unga boshqa o'zgartirishlar kiritilmaydi.³²

Buning natijasida kichik biznes subyektlari faqat belgilangan miqdordagi hujjatlar bilan ishlaydilar, ular soliq qonunchiligida yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni kuzatish bilan bog'liq bo'lgan tashvishdan xalos bo'ladilar. Respublikamiz soliq qonunchiligi amaliyotida ham shu tajribadan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi. U kichik va o'rta tadbirkorlarni noaniqlikdan ozod qilishga, o'z faoliyatlarini bo'lgusi o'zgarishlar va tuzatishlarni hisobga olgan holda amalga oshirishlariga imkoniyat yaratar edi. MDH mamlakatlarida kichik va xususiy tadbirkorlikni soliq imtiyozlari vositasida qo'llab-quvvatlashga nisbatan bir necha xil yondoshuvlar mavjud. Xususan, Rossiyada kichik va xususiy tadbirkorlik uchun quyidagi imtiyozlar joriy etilgan. Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, xalq

³² Sorin-George Toma, Ana-Maria Grigore, Paul Marinescu. Economic Development and Entrepreneurship. Procedia Economics and Finance Volume 8, 2014, Pages 436-443. P.442.

iste'moli mollari, qurilish materallari, tibbiyot texnikasi, dori-darmon ishlab chiqarish, uy-joy, ijtimoiy va ishlab chiqarish obyektlari qurish bilan shug'ullanuvchi kichik va xususiy korxonalar birinchi ikki yil davomida foydadan soliq to'lamaydilar. Biroq barcha tushumning 70 foizdan kam bo'lmagan miqdori yuqorida ko'rsatilgan faoliyat turlari hisobiga shakllanishi lozim. Uchinchi va to'rtinchi yilda kichik va xususiy korxonalar foydadan qonunda ko'rsatilgan miqdorning muvofiq ravishda 25 va 50 foiz darajasida soliq to'laydilar.³³ Bu yerda asosiy shart shundan iboratki, olgan barcha tushumning 90 foizidan kam bo'lmagan miqdori yuqoridagi faoliyat turlari hisobiga shakllangan bo'lishi kerak.

Bunday soliq imtiyozining salbiy jihati kichik biznes korxonalari faoliyatining beqarorligi bilan bogliq. Gap shundaki, ko'plab kichik va xususiy korxonalarning "hayot sikli" qisqa bo'lib, 3-4 yildan oshmasligi mumkin. Amaliyotda kichik va xususiy tadbirkorlik korxonalarinsh mo'ljallangan imtiyoz davrigacha ishlab, undan so'ng yopilishi kabi holatlg ham uchraydi. Kichik va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlab tizimida unga moliyaviy jihatdan yordam ko'rsatish muhim o'rin egallaydi. Ma'lumki, kichik biznesni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash murakkab masalalardan hisoblanib, bu eng avvalo, ushbu sektorning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Jahon amaliyotida kichik va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashning bevosita moliyalashtirish, kredit qiymatini pasaytirish, kredit olishda kafolatni ta'minlash usullaridan keng foydalaniladi.

I bob bo'yicha xulosa

Bozor iqtisodiyoti yakka hukmronlik holatlarini bartaraf etish va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobatni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy yo'naltirilgan ishlab chiqarish tarkibidagi tub o'zgarishlarni talab etadiki, bu masalaning echimi turli mulk shakllariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini keng rivojlantirish talabini orttiradi.

³³ Sorin-George Toma, Ana-Maria Grigore, Paul Marinescu. Economic Development and Entrepreneurship. Procedia Economics and Finance Volume 8, 2014, Pages 436-443. P.441.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik - inson faoliyatining alohida sohasi hisoblanganligi uchun turli hil ijtimoiy me'yorlar ta'sirida bo'ladi. Ularning ichida huquqiy me'yorlar, ishdagi saranjomlik, ishbilarmonlik udumlari, odob va ahloq qoidalariga alohida ustuvorlik beriladi.

Kichik korxonalarni bevosita moliyalashtirish ko'p hollarda davlat tomonidan turli xil rivojlanish fondlarini tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu fondlarning asosiy maqsadi banklarning kichik korxonalarni kreditlashini ragbatlantirish maqsadida zaruriy investitsiya mablag'larini jamlashdan iborat.

II BOB. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANITIRISHDAGI O'RNI TAHLILI

2.1. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi tutgan o'rni


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlovchi asosiy bo'g'in va amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Iqtisodiyotda ro'y berayotgan turli ijobiy o'zgarishlar ko'p jihatdan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri qilib belgilangan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati yildan-yilga ortib bormoqda. Ularning jamiyatni rivojlantirishdagi, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini hech qanday soha egallay olmaydi. Chunki, kichik biznes subyektlari ichki bozorni sifatli tovarlar bilan ta'minlovchi, mamlakat eksport salohiyatini oshiruvchi, mamlakatda ko'p miqdordagi yangi ish o'rinlari yaratuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar hisoblanadi. 2016-yil davomida respublikamizda 32 mingga yaqin yoki 2015-yilga qaraganda 18 foizga ko'p bo'lgan yangi kichik biznes subyektlari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. 2017-yilda aholining 78 foizi mazkur sohada mehnat qilgan va respublikamiz iqtisodiyotini barqaror rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.³⁴

Ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va kelgusida rag'batlantirish borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida, o'tgan 2017-yilning yanvar–dekabrida 38,2 mingdan ortiq kichik biznes (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)

³⁴ <https://stat.uz/uploads/docs/maliy-biznes-yan-dek-2017-uz.pdf> (Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotnomasi).

subyektlari tashkil etildi yoki 2016-yilning shu davriga nisbatan 122,0 foizga ko'paydi. Mazkur kichik biznes subyektlarining eng ko'p qismi sanoat tarmog'ida (27%), savdo sohasida (21%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (13%) va qurilishda tarmog'ida (10%) tashkil etilgan.



2.1-rasm. 2017-yilda yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi³⁵


2017 yilning yanvar–dekabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`yektlari tomonidan:

- sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 57 095,6 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 39,6 foizi) yoki 2016 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 102,1 foizni tashkil etdi;
- 19 407,1 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 32,0 foizi) o'zlashtirildi yoki 2016 yilning yanvar–dekabriga nisbatan 95,5 foizni tashkil etdi.

Tovar va xizmatlar eksport qiluvchi kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining ko'payishi, eksport hajmining oshishiga imkoniyat yaratdi. 2016-yil bilan solishtirganda ularning soni 1310 taga ko'payib, asosan sanoat (733), savdo (329),

³⁵ <https://stat.uz/uploads/docs/maliy-biznes-yan-dek-2017-uz.pdf> O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

qishloq xo'jaligi (162) korxonalaridir. – avtomobil transporti yuk aylanmasining 5,3 foizga (jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 77,9 foizi); – yo'lovchi aylanmasining esa 3,1 foizga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 94,8 foizi) ko'payishi ta'minlandi. 10 587,7 ming nafar kishining bandligi ta'minlandi (jami iqtisodiyotda band bo'lganlarning 78,3 foizi) (o'sish sur'ati 1,8 foiz); Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi eksportda – 27,0 foizni (2016 yilning yanvar– dekabrda 26,0 foiz), sanoatda – 39,6 foizni (45,3 foiz), xizmatlarda – 58,4 foizni (61,4 foiz), qurilishda – 65,1 foizni (66,9 foiz) va bandlikda – 78,3 foizni (78,2 foiz) tashkil etdi.



2.2-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmga nisbatan foizda)³⁶

Hududlar bo'yicha sanoat tarmog'ida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eng ko'p ulushini Toshkent shahri (71,3 foiz), Namangan (68,4 foiz) va Jizzax (61,3 foiz) viloyatlari tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yuqori ulushini Samarqand (76,5 foiz), Surxondaryo (76,3 foiz), Toshkent (76,2 foiz), Farg'ona (75,9 foiz), Buxoro (74,9 foiz), Jizzax

³⁶ <https://stat.uz/uploads/docs/maliy-biznes-yan-dek-2017-uz.pdf> O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

(74,2 foiz) va Andijon (76,2 foiz) viloyatlari tashkil qiladi.

2.1-jadval


2017-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi (foizda)³⁷

Hududlar	Sanoat	Xizmatlar	Qurilish	Bandlik
O'zbekiston Respublikasi	39,6	58,4	65,1	78,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	18	61,3	79,2	75,2
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	34,4	73,7	94,3	84,5
Buxoro	43,4	74,9	67,8	78,5
Jizzax	61,3	74,2	91,3	82
Qashqadaryo	23,1	71,9	76,8	80
Navoiy	18,8	67,3	75,4	60,3
Namangan	68,4	73,7	93,9	83,4
Samarqand	55,5	76,5	92,3	84,5
Surxondaryo	45,8	76,3	79,4	81,1
Sirdaryo	44,9	66,4	91,4	79,5
Toshkent	29,6	76,2	79,2	77
Farg'ona	41,4	75,9	89	80,5
Xorazm	40,6	71,4	87,2	82,9
Toshkent shahri	71,3	51,1	66,8	56,8

Qurilishda Andijon (94,3 foiz), Namangan (93,9 foiz) va Samarqand (76,5 foiz) viloyatlari tashkil qiladi. Bandlikda esa, Andijon va Samarqand viloyatlari (84,5 foiz), Namangan (83,4 foiz), Xorazm (82,9 foiz) viloyatlari tashkil qiladi. 2017 yilning yanvar–dekabrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning

³⁷ <https://stat.uz/uploads/docs/maliy-biznes-yan-dek-2017-uz.pdf> O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

YaIMdagi ulushi 53,3 foizni tashkil qildi (2016 yilning yanvar–dekabrida 56,2 foiz).




2.3-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hududlar bo'yicha YaHMDagi ulushi³⁸

Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi eng ko'p Jizzax (74,2 foiz), Surxondaryo (72,1 foiz), Andijon (72,0 foiz), Namangan (70,6 foiz) viloyatlarida tashkil etdi. Navoiy viloyatida ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda va 40,3 foizni tashkil qiladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2017-yil yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda

³⁸ <https://stat.uz/uploads/docs/maliy-biznes-yan-dek-2017-uz.pdf> O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

900 dan ortiq respodent ishtirok etdi. Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, sanoat tarmog'idagi respondentlarning 24,9 foizi iqtisodiy vaziyatni – qulay va 59,7 foizi esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda qurilishda – 22,1 foiz va 53,5 foiz, savdo sohasida – 25,6 foiz va 59,8 foiz, xizmatlar sohasida – 26,7 foiz va 59,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida esa – 24,8 foiz va 59,0 foizni tashkil etganligini ko'rsatdi. Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashadiganlar sanoatda – 15,4 foiz, qurilishda – 24,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 16,2 foiz, savdoda – 14,6 foiz, xizmatlarda – 14,1 foizni tashkil qildi.



2.4-rasm. O'zbekistonda 2017-yil davomidagi iqtisodiy vaziyatni baholash ko'rsatkichlari³⁹

Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin 3 oyda 68,5 foiz sanoat korxonalari, 60,3 foiz – savdo, 58,9 foiz – xizmatlar, 60,7 foiz – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida va 60,5 foiz – qurilish tarmog'ida kutilmoqda.

Kuzatuv natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini

³⁹ <https://stat.uz/uploads/docs/maliy-biznes-yan-dek-2017-uz.pdf> O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

2.2. O'zbekistonda biznesni yuritish jarayonlari va O'zbekistonning jahon reytingida tutgan o'rnini tahlili

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini majmuaviy tarzda qo'llab-quvvatlash tadbirlariga keng e'tibor qaratilgan. Jumladan "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari" bo'yicha milliy valyutaning va ichki bozordagi narxlarning barqarorligini ta'minlash, valyutani tartibga solishning ilg'or bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, naqdsiz hisob-kitoblar hajmi va qamrovini oshirish, shu jumladan, iqtisodiyot sohalarida to'lovlarning zamonaviy elektron shakllarini joriy etish va tadbirkorlik subyektlarini rag'batlantirish, shuningdek, bankdan tashqari naqd pul aylanishini qisqartirish, bank kassalariga naqd pul tushumlarini ko'paytirishni rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, soliq ma'muriyatchiligi sifati va samaradorligini yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida soliqqa tortishni takomillashtirish, imtiyozlarning individual tartibda berilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ularni maqbullashtirishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, oilaviy biznes va hunarmandlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish, tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada rag'batlantirish va takomillashtirish, eksport-import operatsiyalarini tartibga solishni takomillashtirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlari raqobatdoshligini oshirish, eksport hajmini ko'paytirish va geografiyasini kengaytirish, raqobatdosh kompaniyalarni yaratish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari yiriklashishini rag'batlantirish va boshqa dolzarb tadbirlar belgilangan.

Jahon banki o'zining navbatdagi "Biznes yuritish-2017: barcha uchun teng imkoniyatlar" deb nomlangan yangi reytingini e'lon qildi. Tahlil natijalariga ko'ra, Brunej-Dorussalom, Keniya, Qozog'iston, Belarus, Indoneziya, Serbiya, Gruziya, Pokiston, BAA va Bahrayn "biznes yuritish" ko'rsatkichlari bo'yicha 2015-2016 yillarda eng yaxshi natijalarga erishgan mamlakatlar 10 taligidan joy olgan.

Ushbu mamlakatlar, umumiy hisobda jami 48 ta tadbirkorlik muhitini yaxshilashga qaratilgan islohotlar o'tkazgan.

Hisobotda ta'kidlanishicha, reytingga kiritilgan 190 davlatning har birida tadbirkorlik qilish uchun shart-sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan kamida bitta islohot olib borilmoqda. Ammo Yevropa va Markaziy Osiyo tadbirkorlik sohasida kamida bitta islohot o'tkazayotgan mamlakatlar soni ko'pligi bilan ajralib turadi.

Reytingda birinchi o'rinni Yangi Zelandiya egallagan. Ikkinchi o'rinda Singapur, uchinchi o'rinda Daniya joylashgan. Gong Kong, Koreya Respublikasi, Norvegiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Shvetsiya va Makedoniya kuchli o'nlikka munosib ko'rilgan. Sobiq Ittifoq davlatlari orasida eng yuqori ko'rsatkich Gruziyaga tegishli bo'lib, u 16-o'rinda. Markaziy Osiyo respublikalari orasida eng yaxshi natijani 35-o'rinda joylashgan Qozog'iston ko'rsatmoqda. Qirg'iziston 75, Tojikiston 128-o'ringa joylashtirilgan. Turkmaniston reytingga qabul qilinmagan.

Jahon banki reytingini tuzish bo'yicha tadqiqotchilari O'zbekistonda biznes yuritish imkoniyati va qulaylik muhitini respublikani 87-o'ringa munosib ko'rish bilan baholagan.

Yuqoridagi islohatlar natijasida Jahon banki hisobotiga ko'ra, O'zbekiston o'tgan yilda biznes yuritishning qulayligi bo'yicha jahonning 190 mamlakati ichida 63,03 ball bilan 87-o'rindan joy olgan.

O'tgan yilda O'zbekiston bu borada baholash indikatorlarining 10 tasidan 4 tasida o'z pozitsiyasini yaxshilab olgan.

Ijobiy siljishlarni xususiy mulkni ro'yxatga olish darajasida (6 pog'onaga siljish), minoritar investorlar huquqini himoya etish darajasi (8 pog'onaga siljish),

soliqqa tortish, xalqaro savdo darajasi (1 pog'onaga siljish) kuzatish mumkin. Qolgan indikatorlar bo'yicha keskin pasayishlar kuzatilmagan.

Jahon bankining "Biznesni yuritish-2017" hisobotida O'zbekiston, biznesni yuritish uchun eng qulay sharoitlarni yaratish bo'yicha top 10 islohotchi mamlakatlar qatoridan o'rin olgan.

2.2-jadval

O'zbekistonda biznes yuritishni baholash indikatorlari holati⁴⁰

t/r	Indikatorlar	2016 "DB- 2017"	2015 "DB- 2016"	O'zgarish	2016 "DB- 2017" %	2015 "DB- 2016" %	O'zgarishi
Σ	Reytingdagi umumiy o'rni	87	82	↓ 5	63.03	62.68	↑ 0.35
1	Korxonani ro'yxatga olish	25	23	↓ 2	93.93	93.91	↑ 0.02
2	Qurilishga ruxsatnoma berish	147	147	-	59.79	59.58	↑ 0.21
3	Energiya tarmog'iga ulanish	83	78	↓ 5	71.81	71.32	↑ 0.49
4	Xususiy mulkka huquqni ro'yxatga olish	75	81	↑ 6	66.23	65.25	↑ 0.98
5	Kreditlash	44	42	↓ 2	65.00	65.00	-
6	Minoritar investorlar huquqini ximoya etish	70	78	↑ 8	56.67	55.00	↑ 1.67
7	Soliqqa tortish	138	139	↑ 1	59.06	57.96	↑ 1.10
8	Xalqaro savdo	165	166	↑ 1	44.31	44.31	-
9	Shartnomalar bajarilishi	38	37	↓ 1	67.26	67.26	-
10	To'lovga noqobillikni(nochorlikni)hal etilishi	77	72	↓ 5	46.29	47.24	↓ 0.95

⁴⁰ Doing business 2017: Equal opportunity for all. Economy profile Uzbekistan. Page-6. <http://www.doingbusiness.org> sayti ma'lumotlariga asosan tayyorlangan.

Tadbirkorlik subyektlarini internet tarmog'i orqali davlat ro'yxatidan o'tkazishning soddalashtirilgan tartibining amaliyotga joriy etilishi va "Yagona darcha" tizimining yanada takomillashtirilishi, iste'molchilarga elektr energiyasini yetkazib berish barqarorligining o'sishi va elektr energiyasiga bo'lgan tariflarni shakllantirishning ochiq-oshkoraligini ta'minlash harakatlarining boshlanganligi, korxonalarda zamonaviy korporativ boshqaruv usullarining joriy etilishi, aktsiyadorlar huquqlari va rolini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotganligi, tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlari ko'rsatishning ularni vakolatli organlarga jalb etmagan holda ular o'rtasida elektron axborot almashinuvi yo'lga qo'yilayotganligi, tanlov asosida yer uchastkalarini ajratishning yangi mexanizmining joriy etilayotganligi, qurilishga ruxsat berish sohasidagi tartib-taomillarining takomillashtirilayotganligi, aytish mumkinki, qisqa davriylikdagi erishilgan muhim natijalar bo'ldi.

Joriy yilning shu kuniga qadar ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun maksimal darajada qulay shart-sharoitlarni vujudga keltirish maqsadida 3 ta O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, 20 dan ortiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari hamda 25 ta Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi.

Amaliy natijalarni faqat farmon va qarorlarning chiqarilishida emas, balki iqtisodiyotdagi real siljishlarda ham aniq ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilning o'tgan davrida tadbirkorlik subyektlariga, jismoniy shaxslarga chiqarilgan kredit summalarining o'tgan yillarga nisbatan bir necha borobar oshirilganligi, imtiyozli muddatli kreditlarning jami kreditlar tarkibidagi salmog'ining tubdan ortishi, tashqi kapitalni respublikaga olib kirish borasida erishilgan natijalar (Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Turkiya bilan imzolangan real investitsion shartnomalar), tadbirkorlik va ishbilarmonlikni yo'lga qo'yish yuzasidan turli byurokratik to'siqlarning olib tashlanishi bilan bog'liq jihatlar biznes yuritish muhitida ham yangi bir davrni boshlab berdi, deyish mumkin.

"Biznesni yuritish" hisoboti yo'nalishlari bo'yicha qonunchilik talablarini amaliyotga tatbiq etish va amalga oshirilayotgan choralar samaradorligini belgilab

olish yuzasidan rejalashtirilgan tadbirlar tufayli “Biznesni yuritish” hisobotida O‘zbekiston reytingini har yili 10 pog‘onaga yaxshilab, 2017 yildagi 80-o‘rindan 2021 yilda 40-o‘ringa olib chiqish Hukumat darajasida ustuvor vazifa qilib belgilanganligi ham bu borada ishlarning samaradorligini oshirishning yorqin ifodasidir.

2.3-jadval

“Biznesni yuritish” bo‘yicha O‘zbekistonning 2017-2021 yillarga reja ko‘rsatkichlari⁴¹

t/r	Indikatorlar	2016 “DB- 2017”	2017 “DB- 2018”	2018 “DB- 2019”	2019 “DB- 2020”	2020 “DB- 2021”	2021 “DB- 2022”
Σ	Reytingdagi umumiy o‘rni	87	80	70	60	50	40
1	Korxonani ro‘yxatga olish	25	23	18	13	10	10
2	Kurilishga ruxsatnoma berish	147	127	100	80	50	45
3	Energiya tarmog‘iga ulanish	83	63	53	43	33	30
4	Xususiy mulkka huquqini ro‘yxatga olish	75	55	45	35	25	20
5	Kreditlash	44	38	28	25	20	20
6	Minoritar investorlar huquqini himoya etish	70	60	55	45	35	35
7	Soliqqa tortish	138	118	98	78	50	35
8	Xalqaro savdo	165	135	100	80	50	40
9	Shartnomalar bajarilishi	38	33	28	25	20	20
10	To‘lovga noqobiliylikni(nochorlikni)hal etilishi	77	67	57	50	45	40
11	Davlat xaridi	-	-	-	-	50	50
12	Mehnat bozorini tartibga solish	-				50	50

Jumladan, O‘zbekistonda “Biznesni yuritish” reytingidagi o‘rnini oshirish bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha doimiy faoliyat olib boruvchi mahkamalararo komissiyani tashkil etilayotganligi va uning muhim vazifalari sifatida quyidagilar belgilanganligini ham alohida qayd etish lozim:

⁴¹ Doing business 2017: Equal opportunity for all. Economy profile Uzbekistan. Page-6. <http://www.doingbusiness.org> sayti ma’lumotlariga asosan tayyorlangan.

– biznesni yuritish uchun sharoitlarni yaxshilash bo'yicha choralarni tatbiq etish bilan bog'liq masalalarda davlat organlari bilan samarali aloqalarni ta'minlash;

– tadbirkorlik muhitini yaxshilash bo'yicha tadbirlarni tahlil qilish;

– qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflarni tayyorlash;

– biznes uchun sharoitlarni yaxshilash bo'yicha majburiyatlarini bajarmayotgan davlat organlari rahbarlariga javobgarlik choralarini qo'llash bo'yicha takliflarni kiritish.

O'zbekistonda biznesni yuritish bo'yicha mavjud sharoitlarning xalqaro me'yorlarga to'laqonli javob berishiga qaratilgan aniq va manzilli chora-tadbirlarning belgilanishi (bojxona, soliq siyosatida o'zgarishlar, erkin va kichik sanoat hududlarining tashkil etilishi va h.k.) ham bu borada amalga oshirilgan muhim ishlarning amaliy natijasi bo'ldi, deyish mumkin.

Xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, barcha turdagi to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivojiga to'liq erkinlik berish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

– shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishini ta'minlashning xuquqiy mexanizmlarini takomillashtirish;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining moliyaviy resurslarga bo'lgan talablarini qondirish maqsadida bank kreditlari hajmlarini yanada ko'paytirish, shu jumladan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kredit liniyalari kengaytirish;

– ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va kengaytirish hamda ularning ishlab chiqarish faoliyati uchun xom ashyo va materiallarni sotib olishda ularning narxlaridagi tafovutlarni cheklash;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining xususiyatlari kreditlash mexanizmida inobatga olinishi;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali aholi bandligini oshirish, kasb-hunar va oliy ta'lim

muassasalari bitiruvchilarini biznes loyihalarni kreditlash hajmini kengaytirish;

– tadbirkorlik sub'yektlariga bank xizmatlarini ko'rsatish borasida eng qulay shart-sharoitlarni yaratish, jumladan bank plastik kartalaridan foydalanishda cheklovlarni bekor qilish;

– kredit olgan xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini soliqlar orqali rag'batlantirish kelgusida mazkur tarmoqni yanada rivojlanishida omil bo'lib xizmat qiladi.

2.3. Kichik biznes subyektlarining YaIM dagi ulushini ortishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan xususiy mulk va tadbirkorlikni rivojlantirish borasidagi vazifalar, strategik yo'nalishlarning barchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli Harakatlar strategiyasida xususiy mulk va tadbirkorlik rivojiga oid belgilangan vazifalar, ustuvor yo'nalishlar va g'oyalarning ahamiyati yuqori bo'lib, ularning amalga oshirilishi esa ushbu sohalar rivojlanishi va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shadi.

Respublikada faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarida band bo'lgan aholi soni va kichik biznes subyektlariga ajratilayotgan bank kreditlarini Yalpi ichki mahsulotidagi kichik biznes subyektlari ulushiga o'zaro bog'liqligining korrelyatsion-regression tahlili amalga oshirildi. Buning uchun, davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida tayyorlangan ma'lumotlar bazasidan foydalanamiz.

2.4-jadval ma'lumotlari asosida korrelyatsion tahlilni amalga oshiramiz va quyidagi ko'rinishdagi korrelyatsion matritsani hosil qilamiz.

2.4-jadval

Kichik biznes subyektlarining O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi salmog'i⁴²

Yillar	Kichik biznesning YaIMdagi salmog'i (%)	Kichik biznesda band bo'lganlar soni (mln. kishi)	Kichik biznesga ajratilgan bank kreditlari (mlrd. so'm)
2005	38,20	6,70	464,00
2006	42,00	7,30	607,20
2007	45,70	7,80	743,70
2008	48,20	8,00	1251,00
2009	50,00	8,40	1850,00
2010	52,50	8,60	2690,20
2011	54,00	8,90	4041,10
2012	54,60	9,20	5345,80
2013	55,80	9,50	6981,60
2014	56,10	9,90	9158,00
2015	56,50	10,20	12112,00
2016	56,90	10,40	15900,00

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, tanlanma korrelyatsiya koeffitsiyentiga ko'ra, kichik biznesning YaIMdagi salmog'iga mazkur sohadan band bo'lganlar sonining ta'sirchanligi yuqori bo'lib, $R = 0,9597$ ga teng. Shuningdek, kichik biznesning YaIMdagi salmog'iga kichik biznes subyektlariga ajratilgan bank kreditlarining ta'sirchanligi ham yuqori hisoblanadi $R=0,7686$ ga teng. Umumiy holda olganda o'rganilayotgan omillar orasidagi korrelyatsion bog'liqlilik darajasi yuqoridir.

⁴² O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va davlat statistika qo'mitasi ma'lumatlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2.5-jadval

(MS Excel)da tanlanma korrelyatsiya koeffitsiyentining chegaralari⁴³

Ko'rsatkichlar	Kichik biznesning YaIMdagi salmog'i (%)	Kichik biznesda band bo'lganlar soni (mln. kishi)	Kichik biznesga ajratilgan bank kreditlari (mlrd. so'm)
Kichik biznesning YaIMdagi salmog'i (%)	1	-	-
Kichik biznesda band bo'lganlar soni (mln. kishi)	0,959718037	1	-
Kichik biznesga ajratilgan bank kreditlari (mlrd. so'm)	0,768586181	0,910057465	1

Excel dasturining “Analiz dannix” imkoniyatlaridan foydalangan holda regression tahlilni amalga oshiradigan bo'lsak quyidagicha natijaga ega bo'lamiz.

Bog'liqlik zichligi Cheldok shkalasiga asosan $r=0,992474054$ ni tashkil etadi. Demak ushbu shkalaga asosan ko'rsatkichlar orasidagi korrelatsiya koeffitsienti juda kuchli bog'liqlik darajasiga ega.

Ma'lumotga ko'ra $a_0=-157331$, $a_1=8.056$, $a_2=0,00075$ teng bo'lib, regressiyasining to'g'ri chiziqli formulasi quyidagi ko'rinishni oldi:

$$KBYU(u) = 8,056KBBS(x_1) - 0,00075KBBKR(x_2) - 15,7331$$

Demak, a_1 regressiya koeffitsiyenti natijaviy belgi (u) bilan omil belgi (x) o'rtasidagi bog'lanishni belgilab beradi. Bu esa, omil belgi bir birlikka ortganda natijaviy belgi necha birlikka oshishini ko'rsatadi.

Regressiya tenglamasi ($Y=8,056-0x_1-0,00075x_2$)ning adekvatligini tekshirish uchun F-mezondan foydalanamiz.

Kuzatilgan ma'lumotlarga ko'ra hisoblangan F_p (hisoblangan, kuzatilgan F) ko'rsatkichini tegishli kritik ko'rsatkich F_k , (F kritik, jadvali) bilan solishtirildi.

$$F \text{ hisob} = 4.25$$

$$F \text{ jadval} = 295.595$$

⁴³ Tadqiqot jarayonida muallif tomonidan tayyorlandi.

Bizning hisob-kitobimizda F hisob $>$ F_{jadval} ekanligi uchun (1) ekonometrik model adekvat hisoblanadi.

$$T_k = 2,262 \quad Ta_0 = -3,9 \quad Ta_1 = 15,38 \quad Ta_2 = -6,19$$

Hisob-kitobimizda $Ta_1 > T_k$ ekanligidan a_1 regressiya koeffitsiyentining mohiyatli ekanligini bildiradi.

Yuqoridagi regression tahlillardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub'ktlarida ish bilan band bo'lganlar sonining 1 foiz punktga oshirilishi YaIM da kichik biznes subyektlarining salmog'ining 8.056 foizga oshirishiga olib kelishini bildirib, bu esa o'z navbatida kichik biznes subyektlarida band bo'lganlar soni bo'yicha ko'rsatkichni ijobiy natija sifatida qabul qilishimiz mumkin;

2. bank kreditlarining kichik biznes subyektlari YaIM dagi salmog'iga ta'sirini ta'siri sezilarsiz darajada past ko'rsatkichga ega. Mazkur holatni tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilayotgan kreditlar hajmini talab darajasida emasligi bilan izohlash mumkin.

II bob bo'yicha xulosa

O'zbekistonda "Biznesni yuritish" reytingidagi o'rnini oshirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha doimiy faoliyat olib boruvchi mahkamalararo komissiyani tashkil etilayotganligi va uning muhim vazifalari sifatida quyidagilar belgilanganligini ham alohida qayd etish lozim:

– biznesni yuritish uchun sharoitlarni yaxshilash bo'yicha choralarni tatbiq etish bilan bog'liq masalalarda davlat organlari bilan samarali aloqalarni ta'minlash;

– tadbirkorlik muhitini yaxshilash bo'yicha tadbirlarni tahlil qilish;

– qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflarni tayyorlash;

– biznes uchun sharoitlarni yaxshilash bo'yicha majburiyatlarini bajarmayotgan davlat organlari rahbarlariga javobgarlik choralarni qo'llash bo'yicha takliflarni kiritish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub'ktlarida ish bilan band bo'lganlar sonining 1 foiz punktga oshirilishi YaIM da kichik biznes subyektlarining salmog'ining 8.056 foizga oshirishiga olib kelishini bildirib, bu esa o'z navbatida kichik biznes subyektlarida band bo'lganlar soni bo'yicha ko'rsatkichni ijobiy natija sifatida qabul qilishimiz mumkin

III BOB. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI

3.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi imkoniyatlari

Ma'lumki O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asoslari ham, iqtisodiy asoslari ham yetarli darajada yaratilgan. Bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlik faoliyatini ayniqsa, qishloq joylarida rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini tashkil etish, bozor infratuzilmasini shakllantirish, raqobatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, xizmat ko'rsatish, ayniqsa, auditorlik, konsalting, vositachilik, bank faoliyati bilan bog'liq ilmiy izlanishlarolib borishini talab qiladigan xizmatlar hajmini keskin oshirish, aholida tadbirkorlik, biznes ishlari bilan shug'ullanish xohishini vujudga keltirish va ularni bozor iqtisodiyotiga jalb qilib, boqimandachilik, iste'molchilik psixologiyasini bartaraf qilish maqsad qilib qo'yilgan. Shuning uchun, 2000-yil 25-mayda O'zbekiston Respublikasining tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolotlari to'g'risidagi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning asosiy vazifalari fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va manfaatdorligi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratishdan, ularning ishchanlik faolligini oshirishdan, shuningdek tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

O'zbekiston Prezidenti huzurida iqtisodiy islohotlar, tadbirkorlik va xorijiy investitsiya bo'yicha boshqarmalar aro kengash ishlab turibdi. Bu kengash O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash shakllarini belgilaydi, kichik biznesning umumiy g'oyasini yaratadi, tadbirkorlik sohasini rivojlantirish strategiyasini, yo'nalishini, qo'llab-quvvatlash usullari, shakllarini belgilaydi.

Tadbirkorlar o'zini-o'zi qo'llab quvvatlashning bir qancha shakllari yaratilib, rivojlanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksidagi soliq imtiyozlari ham kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning muhim choralaridan hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznes sezilarli darajada rivojlanib bormoqda. Kichik biznes subyektlarining yalpiichki mahsulotdagi ulushi qariyb 50 foizdan ortiqni tashkil etmoqda. Kichik biznesni rivojlantirishda va moliyaviy qo'llab-quvvatlashda mamlakatimiz tijorat banklari muhim rol o'ynamoqda.

Hozirda respublikamiz banklari imtiyozli kreditlash dasturlariga ega. Ushbu dastur foiz stavkalarini subsidiyalash, qulay muddatga kreditlar berish xamda kredit bo'yicha asosiy qarzni to'lash uchun imtiyozli muddat berishni o'zida mujassamlashtiradi.

Shu jumladan, kichik biznes subyektlarini imtiyozli kreditlashda byudjetdan tashqari jamg'armalarning faoliyati e'tiborga molikdir. Ijtimoiy himoya va mehnat Vazirligi qoshidagi Bandlik fondi va dehqon va fermer xo'jaligini qo'llab-quvvatlash fondi o'zlarining tijorat banklardagi kredit liniyalari orqali kichik biznes subyektlariga imtiyozli mikrokreditlar bermoqda.

Shu bilan birga, mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari rolini yanada oshirish uchun quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- mamlakatimiz va uning mintaqalarida yanada qulay biznes-muhit yaratish, xususiy mulkchilikning ustuvorligini mustahkamlashga yo'naltirilgan qonun hujjatlarini takomillashtirish va bu borada ishonchli kafolatlarni ta'minlash, tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish, davlatning boshqaruv funktsiyalari va ruxsat beruvchi normalarni qisqartirish, byurokratik to'siq va g'ovlarni olib tashlash, kichik biznes subyektlarining moliya-kredit va xom ashyo resurslaridan, ular ishlab chiqaradigan mahsulotlarga davlat buyurtmalari berilishidan keng foydalanishini ta'minlaydigan bozor vositalari va mexanizmlarini tatbiq etish;

- davlat va nazorat organlarining tadbirkorlik subyektlari moliya-xo'jalik faoliyatiga aralashuvini keskin qisqartirish;

- kichik korxonalar tashkil qilish hamda kichik korxonalar va tadbirkorlarni ro'yxatdan o'tkazish tartib-qoidalarini yanada soddalashtirish, kichik biznes

subyektlarini qurish va ularni muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash, noturarjoy xonalar va zarur yer uchastkalarini ajratib berish borasidagi masalalarni hal etish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni qabul qilish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi uchun soliq va boshqa to'lovlar bo'yicha yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, imtiyoz va preferensiyalar berish, hisobotlar tizimi hamda moliya, soliq va statistika organlariga hisobotlar topshirish mexanizmini takomillashtirish va unifikatsiyalash;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kreditlar berish mexanizmini yanada takomillashtirish va ularning hajmini oshirish, birinchi navbatda, investitsiya maqsadlariga, boshlang'ich sarmoyani shakllantirishga kreditlar ajratish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda texnologik yangilash uchun o'rta va uzoq muddatli kreditlar berish;

- kichik biznesni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni, avvalambor, xalqaro moliya institutlarining kreditlarini hamda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni keng jalb etish va yo'naltirish;

- sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda yuqori texnologiyaga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalar joriy etilishini rag'batlantirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish masalalarini tubdan hal etish, ularning eksport salohiyatini oshirishga, eksportga mo'ljallangan mahsulotini jahon va mintaqaviy bozorlarga olib chiqishga ko'maklashish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini axborot bilan ta'minlash, shuningdek kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalarida ularga konsultativ ko'mak berish tizimini yanada rivojlantirish.

Bundan tashqari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida tubdan islohotlar olib borish uchun tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning quyidagi muhim ustuvor yo'nalishlarini izchil ravishda amalga oshirib borish lozim:

- biznes, jumladan, xususiy biznes uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlarni yaratish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini izchil kamaytirib borish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash;
- tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan davlat va hududiy dasturlarni bajarilishini ta'minlash;
- oilaviy va yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va ularni faoliyatini jadallashtirish.

Buning uchun, quyidagi yo'nalishlarni doimiy tartibga solib borish va o'z vaqtida nazorat o'rnatish eng muhim dastaklardan biridir:

- soliq siyosatini yengillashtirish (Soliq kodeksining ayrim tartibotlarini soddalashtirish va to'lovlarni pasaytirish);
- ruxsat berish tartibotlarini yanada qisqartirish va soddalashtirish;
- tadbirkorlarning moliyaviy yukini pasaytirish;
- ish faoliyatiga noqonuniy aralashishni oldini olish;
- tabiiy monopoliya sohalariga kichik biznes vakillarini kirishi uchun shart-sharoitlarni yaratish;
- yuqori likvidli va monopol mahsulotlar sotib olish uchun sharoitlarni ta'minlash;
- bo'sh turgan bino va inshootlardan foydalanish uchun keng imkoniyatlarni yaratish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy ko'mak berish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun zarur infratuzilmalarni yaratish;
- monopol mahsulot va xizmatlar xarajatlarini kamaytirish.

Xususiy sektorni jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, jumladan xususiy tadbirkorlar manfaatlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning quyidagi asosiy yo'nalishlari muntazam amalga oshirib borish tavsiya etiladi.

Birinchidan, kelajak davrlarga mo'ljallangan maqsadli rivojlanish ko'rsatkichlarini (konsepsiyasi) va hududiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

Ikkinchidan, kichik biznes uchun teng sharoitlar yaratish, biznesga xizmat ko'rsatuvchi jarayonlarni ekspertiza qilish, shartlarini va to'lovlarni soddalashtirish (optimallashtirish);

Uchinchidan, biznesni yuritish uchun moliyaviy va moddiy ko'mak berishni tashkil etish, muammolarini o'rganish;

To'rtinchidan, kichik biznes sohasida qabul qilingan qonun, farmon, qarorlar ijrosini doimiy tizimli o'rganish va qonunchilik bazasini takomillashtirish tadbirkorlik sohasini rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish sohasini kelgusida rag'batlantirish bo'yicha quyidagilar tavsiya etiladi.

Tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun vakolatli davlat organlaridan quyidagilarni nazarda tutuvchi, turli xilda ruxsatnomalarni olishdagi rasmiyatchilik tadbirlarini qisqartirish:

- vakolatli organdan o'rnatilgan muddatlarda yo'llangan murojaatga javob olinmagan taqdirda, xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan vakolatli organ ruxsatini talab etuvchi faoliyatni beixtiyor amalga oshirish huquqiga ega bo'lishni nazarda tutuvchi tamoyilni olib borish;

- tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, shaffofligini va ularni davlat organlaridan o'tishining aniq muddatlarini belgilagan holda, ruxsatnomalar ro'yxatini olib borish va optimallashtirish;

– qonunchilikda belgilangan ruxsatnomalarni xo'jalik yurituvchi subyektlari tomonidan olish uchun murojaatlar davrida davlat organlaridan zarur hujjatlarni olishda «bir darcha» tamoyilini joriy etish.

– kichik va mikro korxonalarda ishga joylashgan professional kollejlari, akademik litseylar va oliy o'quv muassasalarining bitiruvchilari, o'quv muassasasini tugatgandan keyin 5 yilgacha, mikro va kichik korxonalar uchun belgilangan ishchilarning cheklangan soni hisobiga kiritilmasligini belgilovchi me'yorni joriy etish.

– professional kollejlari, akademik litsey va oliy o'quv muassasalarida, ular tasarrufida bo'lgan jihozlardan foydalangan holda tashkil etilayotgan korxonalarni ustav fondi uchun minimal talablardan, asbob-uskunalar, bino va inshootlar ijarasi uchun to'lovlardan, shuningdek, korxonada band bo'lganlarning 90 foizi talaba va o'quvchi bo'lgan taqdirda, barcha soliq turlaridan ozod etish.

3.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari

Milliy iqtisodiyotda kichik biznesning to'laqonli rivojlanishi hamda o'z vazifalarini samarali bajarishida soha tarkibiy tuzilmasining mukammallik darajasi muhim o'rin tutadi. Tarkibiy tuzilmaning mukammal bo'lishi kichik biznes salohiyatidan to'liq foydalanish hamda uning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Iqtisodiy taraqqiyotning yuksalib borishi bilan kichik biznesning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish ob'ektiv zaruratga aylanadi. Chunki, mamlakatdagi barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini, YaIM hajmidagi, bandlikni ta'minlashda soha ulushini oshirib borish pirovardida yangidan-yangi kichik biznes sub'ektlarining tashkil etilishini taqozo etadi. Bu esa ko'p jihatdan kichik biznes tarkibida yuqori texnologik ishlab chiqarishning ustuvor holdagi rivojlanishiga bog'liq.

Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Faol tadbirkorlik biznes faoliyatini innovatsion, ya'ni zamonaviy yondashuvlar, ilg'or texnologiya va

boshqaruv usullari asosida tashkil etadigan iqtisodiy yo'nalishdir. Faol tadbirkor deganda, biz raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimi, yangi ish o'rinlari yaratib, nafaqat o'zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlarni tushunamiz. Bunday tadbirkorlar safini kengaytirish, jumladan, yuqori texnologiyalar, ilm-fanning eng so'nggi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalarni mamlakatimizga olib kelish va joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galdagi vazifamiz bo'lishi shart" degan so'zlarini keltirish o'rinlidir.

Kichik biznes korxonalarining tarkib topishi jihatidan bir necha yo'llari mavjud:

- muayyan aholi yashash punktida ijtimoiy va bozor infratuzilmasi ob'ektlari sifatida (chakana savdo do'konlari, umumiy ovqatlanish shoxobchalari, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari, bozorchalar, kichik ishlab chiqarish korxonalari (non zavodlari, qandolatchilik korxonalari va boshq.)). Bularning soni mazkur hududdagi aholi soni va ularning mazkur mahsulot va xizmatlarga talabi bilan aniqlanadi. Biroq, aholi punkti va yirik korxonalar bilan bog'liq tadbirkorlik sub'ektlari sonining o'sishi ma'lum chegaraga ega bo'lib, unga muayyan turdagi mahsulot va xizmatga bo'lgan talab hajmi, muayyan vaqt oralig'ida o'rtacha bitta kichik biznes korxonasi (tadbirkorlik sub'ekti) tomonidan muayyan talabni qondirish imkoniyati kabi omillar ta'sir ko'rsatadi;

- yirik korxonalar, ayniqsa shahar tashkil etuvchi yirik korxonalar atrofida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari sifatida;

- mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar sifatida.

E.Tixonovanning ta'kidiga ko'ra, "Kichik biznesning rivojlanish muammosi odatda yaxlit holda, uning o'ziga xos, ayrim hollarda o'zgacha xususiyatlarga ega bo'lgan alohida qism va elementlarini ajratmagan holda ko'riladi. Shunga ko'ra, kichik korxonalarni oldindan tarkib topgan bozorlarda faoliyat yurituvchi

an'anaviy hamda yangi texnologiyalar, mahsulotlar va bozorlarni o'zlashtiruvchi innovatsion korxonalarga ajratish muhim holat hisoblanadi".

Yuqoridagi fikrga tayangan holda, kichik biznes faoliyati uchun tashkil etish jihatidan engil va qulay rivojlanish shart-sharoitlariga ega bo'lgan an'anaviy soha va tarmoqlar (masalan, chakana savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat ko'rsatish va boshqalar) hamda ma'lum darajada texnologik asoslarni taqozo etuvchi, tashkil etilishi jihatidan nisbatan murakkabroq talablarga ega noan'anaviy soha va tarmoqlarni ajratish mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki, aksariyat tadbirkorlar o'z kapitallarini dastlab an'anaviy soha va tarmoqlarga kiritadilar. Bu holatni quyidagi sabablar orqali izohlash mumkin: mazkur soha yoki tarmoq mahsulotlari (xizmatlari)ning birlamchi, eng zarur, har kunlik ehtiyojlarni namoyon etishi, ularda faoliyatni tashkil etishning tadbirkorlardan u qadar katta hajmdagi kapitalga, maxsus bilimga ega bo'lish, alohida ruxsat olish kabi murakkab talablar qo'ymasligi, kapital aylanish tezligining nisbatan katta ekanligi; foyda normasining dastlabki bosqichda yuqori bo'lishi, sohaga kirish va undan chiqishning nisbatan erkinligi, tovar va xizmatlarning muayyan xaridorlari mavjudligi va boshqalardan iboratdir.

Milliy iqtisodiyot rivojlanishining dastlabki pallasida tadbirkorlik sub'ektlari sonining ozligi natijasida ular o'rtasidagi raqobat kuchsiz bo'lib, olinadigan foyda normasi yuqori bo'ladi. Keyinchalik iqtisodiyotdagi tadbirkorlik sub'ektlari sonining jadal o'sib borishi korxonalar o'rtasidagi raqobatning kuchayishiga; har bir korxonaga to'g'ri keluvchi o'rtacha savdo hajmining kamayishiga; narx darajasi hamda foyda normasining pasayishiga olib keladi. Bu esa, tarmoqlararo raqobat samarasining amal qilishiga, ya'ni, birinchidan, an'anaviy sohalarda foyda normasining pasayishi natijasida boshqa sohalardagi foyda normasining nisbatan yuqori bo'lishi; ikkinchidan, an'anaviy sohalarda raqobatning haddan tashqari kuchayishi va o'rtacha foyda normasining pasayishi sababli boshqa no'anaviy sohalarga kapital kiritilishi hajmining sezilarli darajada oshishi; «kapitalning dastlabki jamg'arilishi» hamda fan-texnika taraqqiyotining jadal sur'atlari ta'sirida texnika va texnologiyalarning

arzonlashuvi jarayonlarining endilikda kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun ham katta mablag' taqozo etadigan noan'anaviy soha va tarmoqlarga kirish imkoniyatini tug'dirishiga imkon yaratadi.

Kichik biznesning tarkibiy tuzilishini bir necha jihatlar bo'yicha farqlash mumkin. Bular orasida texnologik va tarmoq jihatidan tarkibiy tuzilish muhim o'rin tutadi.

Ma'lumki, "texnologiya – ishlab chiqarishning muayyan tarmog'idagi ishlab chiqarish usullari va jarayonlarining yig'indisi, shuningdek, ishlab chiqarish usullarining ilmiy tavsifi». Shundan kelib chiqqan holda, kichik biznesning texnologik tarkibi – mazkur soha korxonalari ishlab chiqarish vositalari tarkibida mavjud bo'lgan yuqori zamonaviy texnika va texnologiyalar orqali ifodalanib, ularning salmog'ining oshib borishi texnologik tarkibning takomillashuvidan darak beradi.

Ishlab chiqarish texnologiyasi qanchalik yuqori va rivojlangan bo'lsa, uning vositasida ishlab chiqarilayotgan mahsulot (bajarilayotgan ish, ko'rsatilayotgan xizmat)ning texnologik darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Boshqa teng sharoitlarda, kichik biznesning tashkil topishi dastlab past texnologik darajaga ega tarmoq va sohalardan boshlanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiningning O'zbekistondagi Taraqqiyot dasturida qayd etilishicha "Uzoq muddatli istiqbolda barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun nisbatan yuqori darajada qo'shilgan qiymatga ega tovarlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish zarur. Aynan o'rta va yuqori texnologik murakkablik darajasiga ega tovarlar bozorlari o'sishning ko'proq potentsialiga ega bo'lib, ayni paytda texnologik murakkablikning past darajasiga ega bo'lgan tovarlar ulushi keyingi 30 yil davomida deyarli o'zgarmasdan qolmoqda, resurs tovarlari ulushi esa izchil ravishda pasaymoqda".

Bu borada birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning: "Alohida katta e'tiborni talab etadigan yana bir masala shuki, hozirgi vaqtda yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asosan savdo-sotiq, xizmat va aloqa sohasida, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha ko'proq rivoj topmoqda.

Lekin, shu bilan birga, sanoat sohasida, yuqori texnologiyalarni talab etadigan zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etishda, innovatsion va nanotexnologiyalar, farmakologiya va farmatsevtika, axborot-kommunikatsiya tizimi, biotexnologiya, muqobil energetika turlaridan foydalanish sohasida, muxtasar aytganda, ilg'or ilm-fan yutuqlariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga keng yo'l ochib berishimiz zarur" - degan fikrlarini eslash o'rinlidir.

Kichik biznes subyektlarining o'z faoliyatini dastlab sodda, past texnologik darajaga ega bo'lgan sohalardan boshlab, korxonalar soni o'sib borishi bilan texnologiyadan foydalanishning o'rtacha darajasi ham o'sib borishini quyidagi holatlar orqali izohlash mumkin:

1. Tadbirkorlarning o'z faoliyatini yaqqol ko'zga tashlanib turuvchi ehtiyoj (talab)ni qondirishdan boshlashi. Masalan, aholi yangi turar-joy massivining barpo etilishi birinchi navbatda bu hududda oziq-ovqat do'konlari, bozorchalar, umumiy ovqatlanish shoxobchalari, maishiy xizmat ko'rsatish (sartaroshxona, maishiy texnika ta'miri, poyafzal tuzatish va h.k.) shoxobchalarining tashkil etilishini taqozo etadi. Korxonalar soni ushbu hududdagi aholi ehtiyojini to'liq qondiradigan darajaga etishi bilan asta-sekin ehtiyojning yuqori texnik va texnologik asosda qondiriluvchi turlariga ixtisoslashgan korxonalar tashkil etib boriladi;

2. Dastlab an'anaviy sohalarga kiritilgan kapital ma'lum vaqtdan so'ng ko'payib ("kapitalning dastlabki jamg'arilishi"), ko'proq mablag' talab qiluvchi sohalarni yo'lga qo'yish imkonini ham yaratadi.

Bundan ta'kidlash mumkinki, mamlakatdagi kichik biznes sub'ektlarining soni nisbatan oz bo'lib, ulardagi kapitallashuv darajasi ham past bo'lgan holatda mazkur korxonalarda texnika va texnologiyadan foydalanishning o'rtacha darajasi ham past bo'ladi. Chunki, raqobatning past darajasi mavjud tadbirkorlik sub'ektlarini texnologik daraja u qadar yuqori bo'lmagan, an'anaviy tarmoqlarda faoliyat yuritish hamda etarlicha foyda normasiga ega bo'lish imkonini beradi. Kichik biznes sub'ektlarining soni ortib borishi bilan ular o'rtasidagi raqobat

kuchayib, aksincha, an'anaviy tarmoqlardagi foyda normasi pasayib boradi. Bu esa, kichik biznes subyektlarini texnik-texnologik darajasi yuqori bo'lgan tarmoqlarga o'tishga majbur qiladi. Boshqa tomondan, kapitallashuv, ya'ni korxonalarda asosiy ishlab chiqarish fondlari va aylanma mablag'lar qiymatining oshib borishi bilan ularning ishlab chiqarish jarayoniga yuqori qiymatdagi texnik vositalarni jalb etish imkoniyatlari kengayib boradi. Shuningdek, ilg'or ilm- fan yutuqlariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning etarli darajada rivojlanmasligi sabablari hamda bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlarni quyidagi jadval orqali kuzatish mumkin (3.1-jadval).

3.1-jadval

Ilg'or ilm-fan yutuqlariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yetarli darajada rivojlanmasligi sabablari hamda rivojlantirish chora-tadbirlari⁴⁴

Sabablar	Chora-tadbirlar
- ushbu yo'nalishdagi faoliyatni tashkil etishning katta hajmdagi mablag'larni taqozo etishi; - ulardagi xavf-xatar (risk) darajasining yuqoriligi; - tadbirkorlardan maxsus bilim va malakalarning taqozo etilishi; - texnik va texnologik asosning mavjud emasligi; - mahsulot va xizmat bozoridagi raqobatning kuchliligi; - kapital aylanish tezligining pastligi.	- mazkur yo'nalishdagi faoliyatni moliyalashtirishning imtiyozli manbalarini barpo etish; - yuqori texnologik kichik biznes korxonalarini imtiyozli sug'urtalash ishlarini takomillashtirish; - oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi, biznes-kurslar orqali yuqori texnologiyalarni yaratish va ulardan foydalanishga yo'naltirilgan mutaxassislarni tayyorlash; - kichik innovatsion korxonalarning «oyoqqa turib olishi» uchun davlat tomonidan maxsus biznes sharoitlar yaratish va boshqalar.

Mamlakatimizdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning keyingi yillarda iqtisodiyot asosiy tarmoqlaridagi ulushini quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin (3.2-jadval).

⁴⁴ Amaldagi qonunchilik hujjatlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.

3.2-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot asosiy tarmoqlaridagi ulushi⁴⁵ (foizda)

Tarmoq	2011-y	2012-y	2013-y	2014-y	2015-y	2016-y	2017-y
Sanoat	21,9	23,1	28,1	31,7	40,6	45,3	39,6
Qishloq xo'jaligi	97,7	97,8	98,0	98,3	98,4	98,2	99,0
Qurilish	68,6	71,1	71,5	69,5	66,7	67,8	65,1
Savdo	86,7	87,3	86,6	86,3	87,1	89,6	88,4


3.2-jadvaldan ko'rinadiki, 2016-yilga qadar faqat sanoat tarmog'ida kichik biznesning ulushi barqaror ravishda oshib borgan. Qolgan tarmoqlar esa ulushi jihatidan deyarli o'zining imkoniyat chegaralariga yaqinlashib qolganini namoyon etmoqda. 2017-yilda barcha tarmoqlarda oldingi yilga nisbatan pasayish kuzatilmoqda.

Shu bilan bir qatorda ta'kidlash lozimki, kichik biznes korxonalari sonini o'stirishning o'zi sohaning iqtisodiy salohiyatini tegishli darajada kengaytirmaydi. Iqtisodiy salohiyatni kengaytirish kichik biznesning texnologik va tarmoq jihatidan tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish, xususan, ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalanib, zamonaviy talabga javob beruvchi tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi, innovatsion loyiha va ishlanmalarni amalga oshiruvchi kichik korxona va mikrofirmalarni ustuvor darajada rivojlantirish bilan bog'liq.

3.1-rasmdan ko'rinadiki, kichik biznesning rivojlanishida tabiiy rivojlanish hamda tarkibiy o'zgartirish davrlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Tabiiy rivojlanish davrida kichik biznes sub'ektlari davlatning tartibga solish ta'sirisiz, erkin raqobat va iqtisodiy manfaatdorlik sharoitida faoliyat ko'rsatadi va tarkibiy tuzilmasi shakllanadi. Bunda uning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga

⁴⁵ O'zbekistonda kichik tadbirkorlik. Statistik to'plam. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Toshkent, 2015. - 18-b.

qo'shayotgan hissassi ham, sohaning mavjud iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda, o'zining tabiiy darajasini namoyon etadi.



3.1-rasm. Kichik biznes tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishi⁴⁶

Biroq, kichik biznes sub'ektlari soni oshib borishi bilan raqobat darajasining haddan tashqari kuchayishi kichik biznes tabiiy iqtisodiy salohiyati (TIS_{KB})ning nisbatan pasayib borishi hamda, buning natijasida, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka qo'shilayotgan tabiiy hissa (TBH_{KB})ning ham pasayishiga olib keladi. Bunday salbiy holatni oldini olishning oqilona yo'li – davlat tomonidan kichik biznes tarkibiy tuzilmasi shakllanishini tartibga solish hisoblanadi. Ya'ni kichik biznes sub'ektlari tarkibiy tuzilishini tarmoq va texnologik jihatidan tartibga solish soha iqtisodiy salohiyatining o'zgartirilgan darajasi ($O'IS_{KB}$)ni hamdasoha tomonidan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga qo'shilayotgan hissaning o'zgartirilgan darajasi ($O'BH_{KB}$)ni ta'minlash imkonini beradi.

Davlat kichik biznesning tarmoqlar bo'yicha izchil va o'zaro mutanosib rivojlanishi jihatidan tartibga solishi kerak. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni zamonaviy sanoat ishlab chiqarishiga jalb etish jarayonida asosiy rolni davlat o'ynashi lozim. Xususiy tashabbusni rivojlantirish va raqobatni rag'batlantirish uchun to'siqlarni bartaraf etishdan

⁴⁶ Tadqiqot ishlarini amalga oshirish natijasida muallif tomonidan tayyorlandi.

tashqari, davlat xususiy kichik va o'rta biznes muhitida zamonaviy va texnologik ishlab chiqarish sektorini rivojlantirish uchun qulay ishchan iqlimni yaratishi lozim.

Fikrimizcha, kichik biznesning tarkibiy tuzilishini takomillashtirishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish zarur hisoblanadi:

- xomashyo va materiallarni sanoat asosida qayta ishlash orqali tayyor mahsulot ishlab chiqarishning ulushini oshirish;
- yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushini oshirish;
- fan-texnika salmog'i yuqori bo'lgan ishlab chiqarishning ulushini oshirish;
- eksportga mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning oshirish va boshqalar.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishini ta'minlashning muhim omili bo'lib sanoat sohasidagi kichik tadbirkorlikni faol rivojlantirish maydonga tushishi lozim. Bunda asosan iste'mol tarmoqlaridagi biznesni kengaytirish hisobiga sanoatning ishlab chiqarish hajmidagi ulushi kengaytiriladi.

Hozirda iqtisodiyotdagi davlat mulkining ulushini pasaytirish bo'yicha tub chora-tadbirlarni qo'llash yo'li bilan ishlab chiqarishning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishning kuchli omili sifatida xususiy sektor, kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish; xizmat ko'rsatish sohasi va servis, kichik biznes, kasanachilik, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirish, mavjud quvvatlarni modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirish hamda yangilarini kiritish, uy-joy qurilishini kengaytirish uchun qulay sharoit va rag'batlarni yaratish, ta'lim, sog'liqni saqlash va uy-joy sohalarini muvozanatli rivojlantirish orqali aholi daromadlari va bandligining izchil o'sishiga yo'naltirilgan faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

III bob bo'yicha xulosa

Mamlakatdagi kichik biznes sub'ektlarining soni nisbatan oz bo'lib, ulardagi kapitallashuv darajasi ham past bo'lgan holatda mazkur korxonalarda texnika va texnologiyadan foydalanishning o'rtacha darajasi ham past bo'ladi. Chunki, raqobatning past darajasi mavjud tadbirkorlik sub'ektlarini texnologik daraja u qadar yuqori bo'lmagan, an'anaviy tarmoqlarda faoliyat yuritish hamda etarlicha foyda normasiga ega bo'lish imkonini beradi.

Kichik biznes korxonalari sonini o'stirishning o'zi sohaning iqtisodiy salohiyatini tegishli darajada kengaytirmaydi. Iqtisodiy salohiyatni kengaytirish kichik biznesning texnologik va tarmoq jihatidan tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish, xususan, ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalanib, zamonaviy talabga javob beruvchi tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi, innovatsion loyiha va ishlanmalarni amalga oshiruvchi kichik korxona va mikrofirmalarni ustuvor darajada rivojlantirish bilan bog'liq.

Davlat kichik biznesning tarmoqlar bo'yicha izchil va o'zaro mutanosib rivojlanishi jihatidan tartibga solishi kerak. "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni zamonaviy sanoat ishlab chiqarishiga jalb etish jarayonida asosiy rolni davlat o'ynashi lozim. Xususiy tashabbusni rivojlantirish va raqobatni rag'batlantirish uchun to'siqlarni bartaraf etishdan tashqari, davlat xususiy kichik va o'rta biznes muhitida zamonaviy va texnologik ishlab chiqarish sektorini rivojlantirish uchun qulay ishchan iqlimni yaratishi lozim".

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yurtimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash jarayonlari bevosita kichik biznes va xususiy tadbirkorlik innovatsion omillar asosida jadal rivojlantirish sa'y-harakatlari bilan uzviy va chambarchas tarzda amalga oshirilmoqda. O'z-o'zidan sohaning rivojlanishi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Aynan rivojlangan va jadal rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi ham bunga guvohlik beradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlovchi asosiy bo'g'in va amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Iqtisodiyotda ro'y berayotgan turli ijobiy o'zgarishlar ko'p jihatdan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri qilib belgilangan.

Magistrlik dissertatsiyasini tadqiq qilish jarayonida quyidagi xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim jihatlaridan biri - bu tadbirkorlik va kichik biznes sub'ektlarini rivojlantirish asosida mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmini keskin oshirish, bandlik masalalarini hal qilish, aholi daromadlarini ko'paytirish hamda milliy farovonlikni ta'minlashdan iborat.

Ikkinchidan, tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqarish, eng avvalo, huquqiy jihatdan himoyalangan bo'lishi kerak. Bunday himoyalash faqatgina davlatning me'yoriy hujjatlari asosidagina amalga oshiriladi.

Uchinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jadal sur'atlar bilan rivojlanib borar ekan, bu jarayonda davlat imtiyozli kreditlar bilan, balki soliq siyosati bilan ya'ni soliqlarni rag'batlantiruvchi funksiyalari orqali ham qo'llab-quvvatlovchi sifatida namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan, faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub'ektlarida ish bilan band

bo'lganlar sonining 1 foiz punktga oshirilishi YaIM da kichik biznes subyektlarining salmog'ining 8.056 foizga oshirishiga olib kelishini bildirib, bu esa o'z navbatida kichik biznes subyektlarida band bo'lganlar soni bo'yicha ko'rsatkichni ijobiy natija sifatida qabul qilishimiz mumkin;

Beshinchidan, bank kreditlarining kichik biznes subyektlari YaIM dagi salmog'iga ta'sirini ta'siri sezilarsiz darajada past ko'rsatkichga ega. Mazkur holatni tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilayotgan kreditlar hajmini talab darajasida emasligi bilan izohlash mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali iqtisodiyotni taraqqiy ettirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab quvvatlashning rivojlangan mamlakatlar tajribasini keng joriy qilish zarur.

2. Tadbirkorlik subyektlari uchun mo'ljallangan innovatsion ishlanmalar laboratoriyasi faoliyatini joylarda yo'lga qo'yish lozim.

3. Milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga to'siq bo'layotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi importining eksportiga qaraganda sezilarli ravishda yuqoriligini tanqidiy qayta ko'rib chiqish hamda mazkur ko'rsatkichni ijobiy bo'lishiga erishish maqsadga muvofiq.

4. Faoliyatini kichik ishlab chiqarishdan boshlab bugungi kunda transmilliy korporatsiya darajasiga yetgan yetakchi brend kompaniyalarning rivojlanish tarixi va tajribalarini o'rganishni keng tashviqot qilish kerak.

5. Tijorat banklarining kichik biznes sub'ektlari uchun ajratayotgan kreditlari uchun garov ta'minotini yanada soddalashtirish maqsadga muvofiq;

6. Kichik biznes subyektlarining eksport jarayonida bojxona yo'riqnomalarini yanada soddalashtirish kerak;

7. Kichik biznes sub'ektlari uchun soliqqa tortish tizimini yanada soddalashtirish va bu jarayonda xorijiy mamlakatlar tajribasidan keng foydalanish lozim.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlab, ularning ichki va tashqi bozorda

raqobatlasha oladigan, sifatli mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni izchil yo'lga qo'ya oladigan mustahkam iqtisodiy sohaga aylanishini ta'minlash lozim.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining taraqqiy etishini ta'minlaydi. Aholi bandligini ta'minlashdagi mazkur sohaning ahamiyati soha uchun yanada e'tiborni kuchaytirish lozimligini ko'rsatadi. Demak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida tarkibiy o'zgarishlar, imkoniyat va imtiyozlarni muntazam amalga oshirish har jihatdan mamlakat iqtisodiyoti rivojiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 1998. – 44 b.

1.2.O'zbekiston Respublikasi Qonuni “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida” 2000-yil 25-may //O'zbekistonning yangi qonunlari. - T.: Adolat, 2001. - B. 4-29.

1.3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.

1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-maydagi “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4725-sonli Farmoni.

1.5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 16 martdagi “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2507-son Qarori.

1.6.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so'zi” gazetasi, 2017 yil 23 dekabr.

1.7.Sh.M.Mirziyoyev. Bosh maqsadimiz - iqtisodiyotimizda olib borayotgan islohotlarni va tarkibiy o'zgarishlarni keskin chuqurlashtirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berishdir: mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. -Toshkent: O'zbekiston, 2017 - 88 b

1.8.Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent : O'zbekiston, 2016. - 56 b.

1.9.Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent : O'zbekiston, 2017. – 104 b.

1.10. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. / Sh. M. Mirziyoyev. – Toshkent : O'zbekiston, 2017. -592 b.

II. O'quv adabiyotlari, monografiyalar, ilmiy maqola, patent va ilmiy to'plamlar

2.1.Beknozov N. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. -T.: TDYuI, 2006.-552 b.

2.2. Rasulov M. Bozor iqtisodiyoti asoslari. Darslik.– T.: O'zbekiston, 1999. – B. 217.

2.3.Mamatov B. O'zbekistonda kichik va o'rta biznes: hozirgi ahvoli, muammolari, istiqboli. Экономическое обозрение. №3 (13), iyun, 2000. 81-83 betlar.

2.4.Основы бизнеса /Под.ред. Ю.Б.Рубина. Учеб. 6-е изд. Перераб. и дополн. - М.: Маркет ДС Корпорейшн, 2005. - 784 с.

2.5.Акимов О.Ю. Малый и средний бизнес: эволюция понятий, рыночная среда, проблема развития. - М.: Финансы и статистика, 2004. - 192 с.

2.6.Бусигын А.В. Предпринимательство. Основной курс: Учебник для вузов. -М.: ИНФРА-М, 1997. - 608 с.

2.7. Сирополис Николас К. Управление малым бизнесом. Руководство для предпринимателей: Пер. с англ. - М.: Дело, 1997. - 672 с.

2.8. Лапуста М.Г. Малое предпринимательство: учебник. - М.: ИНФРА - М, 2008. - 685 с.

2.9. Рубе В.А. Малый бизнес: история, теория, практика. - М.: ТЕИС, 2000. - 231 с.

2.10. Лапуста М.Г., Старостин Ю.Л. Малое предпринимательство. - М.: ИНФРА-М, 1997. - 320 с.

2.11. O'lmasov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik /A.O'lmasov, A.V.Vahobov. -T.: Sharq, 2006. - 408 b.

2.12. Макконелл К.Р., Брюс Л. Экономикс. Т-1. – М.: «Дело», 1992. –388 с.

2.13. Sorin-George Toma, Ana-Maria Grigore, Paul Marinescu. Economic Development and Entrepreneurship. Procedia Economics and Finance Volume 8, 2014, Pages 436-443.

<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2212567114001117>

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

3.1. Tuxliev N., O'lmasov A. Ishbilarmonlar lug'ati. -T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1993.

3.2. Doing business 2017: Equal opportunity for all. Economy profile Uzbekistan. <http://www.doingbusiness.org> sayti ma'lumotlari.

3.3. www.gov.uz-(O'zbekiston Respublikasi hukumati portali)

3.4. www.lex.uz-(O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari milliy bazasi portali).

3.5. www.publicfinance.uz-(O'zbekiston Respublikasida budjet tizimini isloh qilish loyihasi portali).

3.6. www.stat.uz- (O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi).

3.7. www.mf.uz – (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).

3.8. www.sciencedirect.com (Ilmiy maqolalar va dissertatsiyalar fondi).